

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

XUBBALIYEVA MAXPURAT XAMZAYEVNA

“XITOY TARIXI (qadimgi va o‘rta asrlar)”

*O‘quv qo‘llanma 60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari)
yo‘nalishi bakalavr 1-bosqich talabalariga mo‘ljallangan*

Toshkent-2023

Mazkur o‘quv qo’llanma Qadimgi Xitoyning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bakalavr bosqichidagi 1-kurs *60230100-Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari)* yo‘nalishi talabalari uchun qo’llanma sifatida o‘qitish mumkindir. O‘quv qo’llanmada Xitoy tarixining qadimgi va o‘rta asrlar davri yoritilgan bo‘lib, Xitoydagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni qamrab olgan. Qadimgi va o‘rta asrlar davrida Xitoyda hukmronlik qilgan sulolalarining siyosiy boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ichki va tashqi siyosatiga oid ma’lumotlar ham bat afsil keltirib o‘tiladi. Qadimgi Xitoyning Buyuk Ipak yo‘lida tutgan o‘rnii, savdo munosabatlaridagi dunyoga mashxur chinni va ipak mahsulotlarining kelib chiqish tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir: *t.f.n. U.A.Abdullayev*

Muallif: *Xubbaliyeva M.X.*

Taqrizchilar: *t.f.d, professor Karimova N.E
PhD Djumaniyazova F.*

Mundarija

Kirish	3
1-mavzu. Kurs mavzusi va maqsadlari. Xitoyning tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining shakllanishi. Shan-In davlati. Chjou sulolasi.....	4
2-mavzu. Miloddan avvalgi 1 -ming yillikning o‘rtalariga qadar mafkura va madaniyat Lao Szi, Konfutsiy, Mo Di	11
3-mavzu. Kurashuvchi podsholiklar. Sin imperiyasi	16
4-mavzu. Xan sulolasi. Buyuk Ipak yo‘li.....	22
5-mavzu. Xan sulolalari davrida mafkura va madaniyat.Tabiatshunoslik va aniq fanlarning rivojlanishi. Sima Chyan va Ban Gu.....	28
6-mavzu. Uch qirollik davrida Xitoy. Janubiy va Shimoliy sulolalar davri (4—6-asrlar).....	37
7-mavzu. Buddizm, daosizm va konfutsiychilik o‘zaro ta’siri sharoitida Xitoy madaniyati.....	46
8-mavzu. Suy sulolasi.....	52
9-mavzu. Tan sulolasi .Tan imperiyasining tashqi siyosati.....	59
10-mavzu. Sun sulolasi.....	67
11-mavzu. Yuan sulolasi. Fan va madaniyat. Yuan sulolasining tashqi siyosati....	73
12-mavzu. Min sulolasi. Min sulolasining tashqi siyosati. Markaziy Osiyo va Xitoy. Chjen Hening sayohati.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	88

Kirish

Hozirgi kunda Xitoy tobora rivojlanib, Osiyo qit’asida birinchi, butun dunyoda esa yetakchi davlatlar safidan joy olmoqda. Shu nuqtai nazardan Xitoy bugungi taraqqiyotga erishgunga qadar qanday tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tganligini o‘rganishga yo‘naltirilgan har qanday tadqiqot muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyat o‘chog‘i hisoblanuvchi Sharqda Xitoy o‘zining ming yillik tarixi va o‘ziga xos madaniyati bilan dunyoning boshqa davlatlari madaniyatidan ajralib turadi. Shuningdek, Xitoy boy davlatchilik tarixiga ega bo‘lib, uning tarixini o‘rganish hamda tahlil qilish xitoysenoslik sohasining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Qadimgi Xitoyda ilk sivilizatsiyasining paydo bo‘lish shart-sharoitlari, geografik joylashuvi, ilk davlatchilikning paydo bo‘lishidan boshlab, o‘rta asrlarda Xitoyda hukmronlik qilgan sulolalarning ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-siyosiy vaziyati, me’morchiligi, shaharsozlik an’analari, diniy-falsafiy ta’limotlari, madaniyati, aholining yashash va turmush tarzini yoritib beruvchi mavzularni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu qo‘llanmada qadimgi va o‘rta asrlarda Xitoydagi sulolalarning ketma ketligi, tashkil topishi va inqiroz sabablari keltiriladi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasida qadimdan o‘zaro madaniy va siyosiy munosabatlar o‘rnatilgan. Ularni bog‘lab turuvchi Buyuk Ipak yo‘li, uning paydo bo‘lish tarixi, o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarning rivojlanishi, savdo munosabatlarida muhim hisoblangan mahsulotlarning har ikki mintaqada tarqalish jarayoni kabi qimmatli ma’lumotlar aks ettiriladi. Shuningdek, Xitoydan Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan budda sayyoohlari, ularning esdaliklari, yurtimiz tarixiga oid ma’lumotlari yoritib beriladi.

1-mavzu. Xitoyning tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining shakllanishi. Shang-in davlati. Chjou sulolasi.

1-mavzuda:

- Qadimgi Xitoy**
- Shya sulolasi**
- Shang-In davlati**
- Chjou sulolasi**

Kalit so‘zlar: Huanhe, Yanshao, Lunshan, Shya, Shang -In, Chjou, Chjang Yinglyan

Xitoyning tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari. Qadimgi Xitoy tarixi quyidagicha davrlashtiriladi:

- 1.Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi. (mil. avv. II ming yillik);
- 2.Mil. avv. VIII—III asrlarda qadimgi Xitoy;
- 3.Xitoyda birinchi markazlashgan davlat Sin imperiyasi (mil. avv. 221—207-yillar);
- 4.Qadimgi Xitoy I—III asrlarda.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi miloddan avvalgi V—III ming yilliklarda Huanhe (黄河 - huánghé) daryosining o‘rta oqimida uzoq vaqt yopiq holda shakllanadi. Miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalaridan boshlab Yanszi daryosi havzasini ham qamrab oladi.

XX asrning 20-yillarida shved arxeologi Anderson Henan viloyatidagi Yanshao qishlog‘i yaqinidan oldingi davrga oid turli xil sopol idishlari va shunga o‘xshash boshqa madaniyatga oid buyumlar topdi. Anderson Yanshao madaniyatini “Sopol idish bilan o’ralgan madaniyat” deb ataydi.

Uy hayvonlaridan cho‘chqa, it boqilgan, ovchilik, baliq ovlash, termachilik muhim rol o‘ynagan. Yanshao madaniyatini jez davrining Lunshan madaniyatini egallaydi.

Xitoyda ilk sulola nomi Shya (xitoy tilida 夏朝, xià cháo) deb nomlanadi.

Taxminan miloddan avvalgi 2070 -1600 yillarni o‘z ichiga oladi. Shya so‘zi “Huanhe daryosining quyi oqimiga quyiladigan Fenshuy daryosi bo‘yidagi Shya deb nomlangan joy nomidan kelib chiqqan. Shya avlodining asoschisi Kuen (Gun) bo‘lib, u baland tog‘ cho‘qqisi ma’nosini anglatuvchi Chungshan tog‘ida yashagan. Ushbu tog‘ atrofidagi joylarda Huanhe daryosi suvining ko‘payib ketishi tufayli tez-tez suv toshqini bo‘lib turgan. Shu sababdan shyalarning diqqat-e’tibori mana shu tabiiy ofatdan qutulishga qaratilgan. Gun olamdan o‘tgach, uning o‘rnini o‘g‘li Yuy egallagan. Yuy davrida shyalar mazkur daryoning shimoliy qirg‘og‘idagi Fenshuy irmog‘i bo‘yidagi Shya deb nomlangan joyga ko‘chib o‘tgan. Ushbu joy hozirgi XXR ning Shansi o‘lkasi janubiga to‘g‘ri keladi. Shya viloyatiga joylashgandan so‘ng Yuy Xitoy tarixida birinchi bo‘lgan kichik xonlik tashkil qilgan va uni Shya deb atagan”.¹

Miloddan avvalgi 1766—1122-yil Xuanxe daryosining o‘rta oqimlarida Shan, keyinchalik In deb nomlangan ilk davlat tuzumi tashkil topdi. In davlati uzoq yillar davomida qo‘shni qabilalar bilan urush olib borganligi tufayli miloddan avvalgi XI asrga kelib, uning hududi birmuncha kengayadi. Bu davrda madaniyat rivojlanadi. Hozirgi xitoy iyeroglis yozuvi paydo bo‘ldi.

Chjou avlodining kelib chiqishi xususida xitoy tarixchilari orasida turlicha qarashlar mayjud. Masalan, Chjang Yinglyanning asarida bayon etilishicha, shyalar tarkibiga kirgan Chjou avlodining asoschisi aslida Shang sulolasasi itoatidagi ismi Bian, familiyasi Kie (hozirgi o‘qilishida Szi) atalgan bir hokim bo‘lgan. Miloddan avvalgi XVI asrning so‘nggi davrida Shan sulolasida boshlangan ichki kurashlar jarayonida u mustaqil bo‘lib ajrab chiqqan. Chjoularning 15-avlodi Vanchang davrida bular tezda kuchayib va Shan sulolasini yo‘qotib, Chjou davlatini tashkil etgan.²

Chjou davlati ikki davrga bo‘linadi: *G‘arbiy Chjou* (mil.avv. 1027-770 yillar) va *Sharqi Chjou* (mil.avv. 770-256 yillar) davlati.³

Chjouning ilk hukmdori o‘z hukmdorligi davrida davlat chegarasini

¹ A. Xo‘jayev. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007. 17-18 b.

² A. Xo‘jayev. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007. 20-21 b.

³ xitoy tilida *G‘arbiy Chjou* 西周 xīzhōu va *Sharqi Chjou* 东周 dōngzhōu

kengaytirishga, shahar qurilishiga va obodomlashtirishga katta e'tibor qaratadi. Shaharlar atrofini chegaralash, aholi yashashi va ko'payishi uchun uy-joy qurilishi amalga oshirilgan. Bu davrda mamlakat viloyatlarga bo'linadi va ularni lashkarboshilar hamda amaldorlarga bo'lib bergenlar.

Oliy hokimiyat nasldan naslga meros bo'lib o'tadigan podsho (van) qo'lida edi. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining ancha yuqori darajasiga erishiladi, yirik yer egaligi rivojlanadi. Qulchilik ham o'sadi, davlat ancha mustahkamlanib, uning tarkibiy tuzilishi murakkablashib boradi. Barcha yerkarning egasi ilgarigidek podsho (van) hisoblangan. Podsho yerkarni tasarruf qilgan: xohlasa in'om qilgan, xohlasa qaytarib olgan. Yirik yer egaligi rivojlanib borgan. Miloddan avvalgi 770-yilda podsholik poytaxti Xaodan Loyanga ko'chiriladi. Shundan keyin Sharqiy Chjou podsholigi davri boshlanadi. Sharqiy Chjou podsholigi davri mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yirik o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi ijtimoiy hayotda savdogarlar rolining o'sishiga sabab bo'lgan.

Chjou davlati davrida xo'jalik asosini dehqonchilik tashkil qilgan va u ancha rivojlangan edi. Shimoliy Xitoyning hosildor yerlaridan dehqonlar katta hosil olishga erishganlar. Bu yerda qishki va bahorgi donlar ekilar, bog'dorchilik, polizchilik, mevali daraxtlarni ko'paytirish, hamda kanop yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligi bilan bir vaqtda hunarmandchilik, jumladan, to'qimachilik ancha rivojlangan. Bu vaqtda temirchilik va hunarmandchilik sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, temirdan dehqonchilik uchun zarur asbob-uskunalar yasash keng yo'lga qo'yiladi. Hukmdor o'z yaqinlari va zodagonlarga ko'plab yerkarni taqsimlab bergen. Natijada Chjou davlatida yerga ega bo'lgan tabaqalar – davlat mulozimlarini, zodagonlarni paydo bo'lishiga olib kelgan. Xo'jalikda qo'l mehnatidan foydalanilgan. In davrida yuzaga kelgan quldarlik Chjou davrida ancha kengaydi va rivojlandi.

Chjou qabilasi haqidagi birinchi ma'lumotlar Vu Din davridagi In davlatining epigrafik yodgorliklarida uchraydi. Chjou xalqi egallab olgan davlatlarining eng muhim texnik va madaniy yutuqlarini tezda o'zlashtirdi, birinchi navbatda, bronza quyish texnikasini o'zlashtirdi. Bosqinchilik yurishlaridan oldin Chjou xalqi bronza haqida deyarli hech qanday ma'lumotga ega emas edi. Endi In davlatidagi ustalarini qo'lga olib, ulami o'z xizmatlariga jalb qilishdi. Chjou xalqining qurol-yarog'lari, marosim idishlari, metall bezaklarini tashqi ko'rinishi bo'yicha In davlatining mahsulotlaridan ajratish qiyinligi bejiz emas. Chjou davlati o'sha davr armiyasining asosiy zarba beruvchi kuchi bo'lgan urush aravalalarini yasashni va ulardan foydalanishni In davlatidan o'rgandilar. Yengil aravalarga bir juft ot bog'langan bo'lib, Sariq daryo havzasida bemalol harakatlangan. Aravada odatda uchta jangchi bo'lgan: otlarni haydab yurgan aravachi; dushmani o'q bilan uradigan kamonchi; nayza bilan quollangan nayzachi.

Chjou xalqi In davlati yozuvini qabul qildi. Miloddan avvalgi 11—9 asrlarga oid Chjou epigrafik yodgorliklari In davlatining ierogliflarida yozilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan qisman o'zgartirilgan. Bundan tashqari, ilgari In davlatining bir qismi bo'lgan, ammo In davlatini bosib olish paytida Chjou xalqini qo'llab-quvvatlagan ko'plab qabila rahbarlari chjou hukmdorlari tomonidan tan olinadi.

Miloddan avvalgi XIV-XI asrlardagi dafn marosimlarida kuzatilishi mumkin bo'lgan In davlati jamiyatining ijtimoiy tabaqlanishi, Chjou istilosidan keyin ijtimoiy darajalar tizimida ham o'rnatildi.

Chjouning butun erkin aholisi beshta ijtimoiy guruhgaga bo'lingan bo'lib, ular ierarxik tamoyilga ko'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lib, qadimgi Xitoyda boshqa qadimgi Sharq jamiyatlariga qaraganda aniq belgilangan edi. Ierarxik zinapoyaning eng yuqori pog'onasini egallagan guruh hukmdorning shaxsiyati bilan ifodalangan

– an'anaga ko'ra, ular Chjou Van deb atalgan. Ikkinchi guruh – chjuhoular ya'ni eng yuqori chjou sulolası vakillari. Uchinchisi - dafu, o'sha qabila guruhlari boshliqlari hisoblangan. To'rtinchi guruh - shi, u yoki bu qabila tarkibiga kirgan ko'p oilalarning boshliqlari. Oziq-ovqat va ichimlik miqdori, kiyim-kechak, chorva mollari va qullarning soni har xil, qayiq, arava va uy-ro'zg'or buyumlarining ayrim shakllaridan foydalanishga ta'qiqlar mavjud edi. Insonning bosh kiyimida, dalalar sonida va turar-joy hajmida ham farqlar kuzatilar edi. Shuningdek, o'limdan keyin - kafan va qabr chuqurining o'lchamida ham farq bo'lgan.

Nihoyat, beshinchi guruh oddiy odamlardir. Ijtimoiy daraja beshta ijtimoiy guruh ichida biriga mansublikning tashqi ko'rinishidan ajratilgan. Turar joyning o'lchamlari va uning bezaklari qat'iy tartibga solingan: "Osmon O'g'lining (van) saroyi sayqallangan toshlar bilan qoplangan; Chjuhou saroyi ham kesilgan va sayqallangan toshlar bilan o'ralgan; dafu tabaqasidagi uylarda esa oddiygina kesiladi va hokazo. Xuddi shu narsa taomlanishga ham tegishli edi: vang qo'chqor va cho'chqa go'shtini, chjuhou - faqat mol go'shtini, dafu – cho'chqa go'shtini, shi - baliqni iste'mol qilishi mumkinligiga ishonishgan. Oddiy odamlar go'sht iste'mol qilish huquqiga ega emas edi.

Bronza, metalluriya o'sha davrning muqaddas marosimlarida muhim rol o'ynagan. Avvalgidek, bronza idishlarning aksariyati qurbanlik qilish uchun, ba'zilari esa qabr uchun dafn marosimi sifatida qilingan. Chjou bronza hunarmandlari ko'p miqdorda qurol-yarog', arava jihozlari, ot jihozlari va boshqa foydali buyumlar ham ishlab chiqargan. Qurbanlik marosimlarida ishlatiladigan bronza idishlar vazifasiga ko'ra turlicha bo'lgan: pishirish uchun ishlatiladigan idishlarga "li" (poydevori uch ustunli dumaloq idish) kiritilgan; "ding" (3 oyoqli yarim sharsimon idish); "fandin" (to'rt oyoqli). Bronza sharob idishlari birgalikda "zun" nomi bilan tanilgan. Marosim va bayram idishlari ham tayyorlangan. Ular

loydan yasalgan. Bundan tashqari, Xitoy kulollari asrlar davomida dunyodagi eng yaxshi qadimiy kulolchilik na'munalarini bo'lib kelgan. Chjou davrida ajoyib uzun dumli qushlar va katta burchakli belgilarni o'z ichiga olgan yangi dekorativ naqshlar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, chjoular o'zlarining bronza idishlariga yozuvlar qo'shilgan. Bitta yozuvda 400 tagacha belgi ishlatilgan. Mum ishlab chiqarish usulini joriy etish orqali quyish jarayoni yaxshilandi. Shu paytdan boshlab, Chjou bronzalari estetik jihatdan ajoyib ko'rinishga ega bo'ldi. Misol uchun, Loyan yaqinidagi Jinkonda olib borilgan qazishmalarda o'ziga xos go'zallikka ega bo'lgan ajoyib nafislik va klassik cheklovga ega bo'lgan bronza idishlar topildi. Miloddan avvalgi VIII asrda Xenan provinsiyasidagi Shankonlin qabridan topilgan, lekin ayniqsa miloddan avvalgi IV-III asrlarda mashhur bo'lgan, qadimgi Xitoy e'tiqodiga ko'ra, dafn marosimida ishlatiladigan bronza ko'zguni yorug'lik manbai va shuning uchun qabrning zulmatini yoritishi mumkinligiga ishonishgan. Vaqt o'tishi bilan bronza buyumlarning bezaklari yanada takomillashib, unga oltin, kumush, shisha, nefrit va yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan qo'shimchalar, shuningdek, zargarlik buyumlarini yasashning boshqa usullari qo'llanilgan.

Chjou davrining tasviriy san'ati kompozitsion holatlarining xilma-xil aralashmalarini aks ettiradi. G'arbiy Chjou sulolasasi san'ati asosan miloddan avvalgi 1700—1050 yillarda gullab-yashnagan Shan davlati san'atining davomi bo'lgan, masalan, bronza metallurgiya va bronza haykaltaroshlik kabi. Bundan tashqari, marosimlar va bezak maqsadida ko'p miqdorda nefrit bezakli buyumlarini ishlab chiqarish davom etdi. Kulolchilik san'ati "Urushayotgan davlatlar" davrida va Xan sulolasining san'at davrida (miloddan avvalgi 206 - milodiy 220 yillari) gullab-yashnashda davom etdi, kengaytirildi va takomillashtirildi. Shahar va savdo infratuzilmasi yaxshilangani sari me'morchilik sohasi muhimroq bo'lib borgan.

Rassomchilikda ham xuddi shunday edi. Chunki, ipak bo'yicha bir nechta asarlar bundan mustasno. Chjou davridan bir nechta rasmlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Asarlarning faqat yozma tavsiflari qolgan, ularda asosan shaklli rasm va portret san'ati, shuningdek, ba'zi tarixiy sahnalar mavjud. Biroq, urushayotgan davlatlar davri (miloddan avvalgi 475-221-yillar) Xitoy san'atida muhim davr bo'lган, chunki xitoylik rassomlar birinchi marta atrofdagi dunyoni tasvirlay boshlaganlar. Bo'yalgan kulolchilik va qabr devori rasmlari tasviriy san'atda ikkita keng tarqalgan turlardan biri bo'lib, ipakka ibtidoiy siyoh bo'yoqlar ishlatilgan. Xitoy yozuvining chambarchas bog'liq bo'lган xattotlik san'ati birinchi marta Shan davrida paydo bo'lган va keyinchilik Chjou davrida gullab-yashnagan. Ular yozilgan materiallar nomi bilan atalgan, bu yozuvlar miloddan avvalgi III asrda Sin sulolasini san'atining boshlanishigacha o'z modasini saqlab qolgan. Chjou sulolasini davrida Xitoyning lak buyumlari (jumladan, oltin va kumush naqshlar) ham to'liq rivojlangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Xitoy tarixiga oid manbalarni ayting;
2. Xitoydagi ilk sulola nomi qaysi?
3. Shang-In davlatiga qachon asos solingan?
4. Chjou sulolasini nechta davrga bo'linadi?

2-mavzu. Miloddan avvalgi 1 -ming yillikning o'rtalariga qadar mafkura va madaniyat Lao Szi, Konfutsiy, Mo Di

2-mavzuda:

-Qadimgi Xitoy falsafasi

-Daosizm

-Konfutsiychilik

Kalit so 'zlar: Kong zi, Lunyu, Lao Szi, dao, Dao de szin, Mao szi;

Qadimgi Xitoy ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar dastlab vujudga kelgan va taraqqiy etgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Xitoyda fan va madaniyat o‘ziga xos shaklda rivojangan. Miloddan avvalgi XII asrda esa urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo‘liga o‘tgan. Bu hokimiyat miloddan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtida diniy mifologik dunyoqarash ustivorlik qilgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida turli xil yo‘nalishlar mavjud. Xitoy hayot tarzi, g‘oyaviy jamiyatining asosi va xitoyda falsafiy qarashlarni tashkil etishning bosh tamoyili bu konfutsiylik ta’limotidir. Konfutsiylik nafaqat din, shuningdek Qadimgi Xitoydagi siyosiy, ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning asosidir. Konfutsiylik ta’limotining asoschisi – Konfutsiydir. Konfutsiy (xitoycha kong zi 孔子, miloddan avvalgi 551—479 yil) yagona asari hisoblangan kitobi - bu “Lunyu” (“Munozara va tahlillar”) dir. Asar davlat faoliyatining har xil xonlik davrlarini, turli yozuvlar va suhbatlari haqida yozilgan. Aslida ushbu kitob Konfutsiyning nasihatlari va hikmatlari asosida shogirdlari tomonidan yaratilgan. Konfutsiy hujjatli tarixiy manbalarni yuqori baholaydi, ularga asoslanib, o‘zining ta’limotlarini yaratadi. Konfutsiylik Qadimiy Xitoy uchun kamida yagona va almashib bo‘lmaydigan qadriyat hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi kunga qadar o‘z ta’sirini yo‘qotmay kelayotgan falsafiy ta’limotdir. Konfutsiy an’analarga qattiq rioya qilgan mutafakkirdir. Uning ta’limotida qadimgi yozma manbalarni o‘rganish markaziy o‘rin tutadi. Konfutsiy o‘zi haqida shunday deydi: “Eskini bayon qilaman va yangini yaratmayman”.

Konfutsiychilik axloqi insonni uning ijtimoiy vazifasi bilan bog‘liq ravishda

tushunadi, ta’lim va tarbiyani esa, insonni ana shu vazifani bajarishga olib keladigan asosiy narsa sifatida idrok qiladi. O‘z navbatida konfutsiylik odob-axloq va ezgulik ta’limoti hamdir. Uning quyidagi hikmatli o‘gitlari fikrimizning yorqin isbotidir: “Ezgulik uzoq-uzoqlarda, olisdami? Men oqko’ngil, yaxshilik ulashguvchi inson bo’lmoqchiman. Bas, yaxshilik o’z qo’lingda!”. Shuningdek, Konfutsiy 22 yoshidan ta’lim berish bilan shug‘ullagan, o‘z mакtabida esa nafaqat odob-axloq qoidalari balki, siyosat, til va adabiyot o‘qitilgan. 50 yoshida esa siyosiy faoliyati boshlangan bo‘lib, Lu podshohligida yuqori amaldor lavozimida xizmat qiladi. Biroq, bir qancha to‘sıqlar va fitnalar tufayli o‘z lavozimini tark etib, mamlakatning turli joylarida o‘z g‘oyalarini odamlarga o‘rgatadi. Miloddan avvalgi 484-yilda Lu podshohligiga qaytib keladi. Vafot etguniga qadar umrini Konfutsiy o‘z falsafiy qarashlarini shogirdlariga va jamiyatga o‘rgatishga bag‘ishlaydi. 1949-yilgacha Konfutsiychilik Xitoyda asosiy va rasmiy mafkura hisoblangan. XX asrning 50-yillaridan boshlab bir necha o‘n yillar davomida Konfutsiylik ta’qib etildi, ammo vaqt o‘tib yana keng tarqala boshladi. Hozirgi kunda uning uyi ziyoratgoh bo‘lib, Konfutsiy ibodatxonasiga aylantirilgan.

Quyida Konfutsiyining hikmatlaridan bir nechtalarini keltiramiz:

- Jarohat uchunadolatni, ezgulik uchun faqatgina ezgulikni qalqon biling;
- Sadoqat va samimiyatni saqlab qolmoq — cho‘qqining qorni ushlab qolishidek chiroylidir;
- Haqiqatni ko‘rmoq va unga intilmoq — yoki jasorat, yoki tarbiya mahsuli;
- Haqiqiy bilim — kimningdir bilimsizligidan saqlanmoqdir;
- Kimki isrofni bilmasa, azobni bilur;
- Ezgulik hech vaqt yolg‘iz qolmagan. Uni sinab ko‘rgan inson o‘zini yaxshilikka qo‘shni, deb hisoblayversin.

Daosizm miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan falsafiy ta’limotdir. Uning tub g‘oyasi “dao” to‘g‘risidagi tasavvurlardan iborat bo‘lib, moddiy olamdagи buyum va hodisalar turli-tumanligining mohiyatini ta’minlovchi, ularning mavjudlik sababi va manbaini tashkil etuvchi ta’limot hisoblanadi. Milodning II asriga kelib bu ta’limot asosida diniy qarashlar ham shakllanib borgan va u daosizm nomini olgan. Bu din qadimgi dunyo faylasufi Lao Szi nomi bilan bog‘liq “*Dao de szin*” kitobidagi ta’limotga asoslangan. Daosizmda moddiy olam haqida falsafiy qarashlar asosiy o‘rin tutadi. U dunyodagi barcha buyum va hodisalar o‘zgarishda, harakatda deb ta’lim beradi. Daosizm ta’limotida tabiatga yaqin bo‘lgan hayotga qaytish hamda insonga o‘zidagi majburiyat va burch kishanlarini uloqtirib tashlash kerakligini aytadi. Ushbu ta’limotda konfutsiylik, buddizm elementlari ham mavjud. Daosizm ta’limotining asoschisi Lao Szi bo‘lib, milloddan avvalgi VII asrda tug‘ilgan. Konfutsiy bilan bir davrda yashagan. Qadimgi Xitoy manbalarida Konfutsiy bilan Lao Szi uchrashganligi va Konfutsiy uning donoligidan hayratlanib, *ajdarho* deb atagani haqida aytildi. Lao Szi arxivchi bo‘lib ishlagan, biroq u lavozimidan voz kechadi. Lao Szi falsafiy fikrlarni juda sevgan. Keyinchalik, Osmon va Osmonosti sirlaridan voqif donishmand sifatida xalqqa mashhur bo‘la boshladi.

Daosizm ta’limotiga ko‘ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosiy qismi “Ulug‘ Dao” hisoblanadi (道 dao – “yo‘l”, “haqiqat”, “tartib”). Dao to‘g‘risidagi fikrlar konfutsiychilik va daosizm shakllanishidan oldin paydo bo‘lgan bo‘lib, konfutsiylik ta’limotida ham daosizm haqidagi fikrlar uchraydi. Shu sababli, konfutsiylik va daosizm ta’limotining o‘xshash jihatlari ko‘p. Daosizm ta’limotining hikmatlari quyidagicha:

- ❖ Meni qancha kam bilsalar, shuncha qadrliman. Shu tufayli donolikda komil odamlar qalin, dag‘al liboslarga burkanib, qo‘ynida yashma toshni yashirgan odamga o‘xshaydilar;
- ❖ Osmon ostidagi hamma narsa omonatdir;

- ❖ Bilguvchi so‘zlamaydi, so‘zlaguvchi bilmaydi;
- ❖ Nafratga yaxshilik bilan javob qaytarmoq kerak;
- ❖ Odamlar go‘zallikni anglagan ondan boshlab xunuklik paydo bo‘ladi;
- ❖ Buyuk ishlar, albatta, mayda ishlardan boshlanadi.

Daosizm falsafasidagi xudojo‘ylik hayotning, borliqning butunligiga ishonishdadir. Ikkinci asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o‘limning nisbiyligi va uzoq yashash, abadiy hayotga erishishdir. Daosizmdagi yana bir asosiy nuqta bu - mavjudlik, hayot va o‘limning nisbiyligi va uzoq yashash, abadiy hayotga erishishdir. Daosizm birinchi ming yillikda buddizm va konfutsiychilik bilan raqobatlashib keldi. VI asrga kelib daosizm konfutsiychilikdan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. XIII asrdan boshlab daosizm ta’limoti har xil fikrlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

Moistlar maktabining asoschisi Mo-szi (miloddan avvaligi 479-431-yillar) hisoblanadi. Unda asosiy e’tibor ijtimoiy axloq muammolariga qaratilgan bo‘lib, uni amalga oshirish hokimiyat boshlig‘ining qat’iy tashkilotchiligi vositasida namoyon bo‘lishi bilan bog‘lanadi. Bu mакtabda jismoniy mehnat uning tinglovchilarini tarbiyalashning asosiy vositasi hisoblangan. Moizm ta’limoti Konfutsiy ta’limotining butunlay qarama qarshisidir. Uning butun ma’nosи umumiyy muhabbat g‘oyalari, o‘zaro manfaat va muvaffaqiyat qozonishda ifodalanadi. Jamiyatdagи barcha odamlar uchun majburiyat sifatida umumiyy o‘zaro insonparvarlik me’yori tavsiya etiladi, barcha kishilar bir-biriga foyda keltirish haqida g‘amxo‘rlik qilishlari lozim. Moizm ijtimoiy ahvoli mushkul va ziddiyatli bo‘lgan mayda mulk egalari –dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar hamda davlat apparatining past mansabdor egalari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. Ular bir tomonidan mehnatkash ommaga yaqin bo‘lib, ularning e’tiqodlarini ma’lum darajada qabul qilgan bo‘lsalar, ikkinchi tomonidan jamiyatda ma’lum mavqeni egallaganlaridan so‘ng hukmron tabaqaga yaqinlashishga urinib, xalqning imtiyozlariga da’vogarlik qildilar. Ular hamma odamlarning osmondagи Xudo oldida teng ekanligini isbotlashga harakat qilishdi. Davlat xizmatiga esa ziyoli odamlarni qo‘yish kerak deb

hisoblashdi. Shu nuqtayi nazardan, ular konfutsiylik ta’limotini ham tanqid qildilar. Shuningdek, moizm ta’limoti donolik manbaini nafaqat tug‘ma fazilatlar va o‘rganish, balki oddiy odamlar hayotidan olingan bilimlar orqali shakllanishini targ‘ib qildi. Davlat boshqaruvida ishlayotgan amaldorlarning malaka oshirishi talab qilmaydi va insonning davlatni boshqarish qobiliyati uning ishbilarmonlik fazilatlari - oddiy xalqqa xizmat qilish xohishi, mehnatsevarligi bilan bog‘liq ravishda rivojlanishini qayd etishadi.

Qadimgi xitoyda shakllangan falsafiy ta’limotlar hozirgi davrda Xitoy va Uzoq sharq mamlakatlarida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qadimgi Xitoydagি falsafiy ta’limotlarning har biri ijtimoiy hayotda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi va ular Xitoy falsafasining o‘zagini tashkil etadi. Qadimgi Xitoy falsafasi Uzoq Sharq mamlakatlari xalqlarining madaniyati shakllanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan va bugungi kunda ham o‘z ta’sirini yo‘qotmay kelayotgan muhim ijtimoiy ta’limotlardir.

Nazorat uchun savollar:

1. Konfutsiylik ta’limotining asosiy g‘oyalarini aytинг
2. Konfutsiylikning asosiy manbasi qaysi?
3. Daosizm qachon paydo bo‘lgan?
4. Daosizmning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Maoizm asosan kimlarning manfaatini himoya qilgan?

3-mavzu. Kurashuvchi podsholiklar. Sin imperiyasi.


3-mavzuda:

- Kurashuvchi podsholiklar davri
- Sin imperiyasining tashkil topishi
- Sin imperiyasida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot

Kalit so‘zlar: zhàn guó, Sin sulolası, Sin Shihuandi, Buyuk Xitoy devori, xunlar;

Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Sharqiy Chjou davlati (东周) bir qancha davlatlarga bo‘linib ketadi. Chunki, katta hududlarda hukmronlik qilayotgan yirik amaldorlar tezda o‘z vakolatlarini mustahkamlashga intilishdi, bu esa Chjou davlati nufuzining yakuniy pasayishiga olib keldi. Natijada, Xitoy tarixida Kurashuvchi davlatlar (zhàn guó - 战国) davri boshlandi. Bu davr miloddan avvalgi 475-221 yillarni o‘z ichiga oladi. Kurashuvchi davlatlar davrida Xitoyda hududiy ustunlik va yakka hukmronlik uchun jiddiy kurashlar bo‘lib o‘tadi. Miloddan avvalgi 334-yilga kelganda Xitoyda quyidagi yettita jangovar davlat paydo bo‘lgan edi:

- | | |
|------------------|-------------------|
| 1) 秦(qín) - Sin; | 5) 韩(hán)- Han; |
| 2) 齐(qí) - Si; | 6) 赵(zhào)-Chjao; |
| 3) 楚(chǔ) - Chu; | 7) 魏代(wèi)-Vey; |
| 4) 燕(yān)-Yan; | |



-*Sin davlati* g‘arbda, Vey daryosi vodiysida va Guanchjonda joylashgan edi.

Ushbu geografik joylashuv boshqa davlatlardan himoyalanishga imkon berar edi.

-Shansining markazida joylashgan Jin davlatining uch vorisi mavjud edi. Bular:

Xan davlati - janubda, Sariq daryo bo‘yida, *Vey davlati* o‘rtada, taxminan bugungi sharqiy Xenan provinsiyasida joylashgan. *Chjao davlati* esa eng shimolda, taxminan bugungi janubiy Xebey provinsiyasi va shimoliy Shansi provinsiyasida joylashgan edi;

-*Si davlati* sharqda, markazi esa Shandun yarim orolida joylashgan edi;

-*Chu davlati* janubda, uning asosiy hududi Xan daryosi vodiylari va keyinchalik Yanszi daryosi atrofida joylashgan edi.

-*Yan davlati* shimoliy-sharqda, markazi hozirgi Pekinda joylashgan edi. Keyinchalik Lyaodun yarim orolini egallay boshladi.

Mazkur davlatlar o‘z hududlarini kengaytirish yoki saqlab qolishga intilib, o‘zaro cheksiz urushlarni davom ettirdilar.

Kurashuvchi davlatlar davrida Xitoyda urush san’atida temir va otliq askarlardan foydalanish kabi ko‘plab yangiliklar yaratildi. Turli hududlarga piyoda, otliq va jang aravalalaridan iborat katta armiyalar joylashtirildi. Bunday katta kuchlarni ta’minalash, tayyorlash va nazorat qilish uchun davlatning kuchli qo‘mondonlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan murakkab armiya tizimi kerak edi. Qo‘sishlar soni o‘n mingdan bir necha yuz ming kishigacha bo‘lgan. Temir qurollar keng tarqalib, bronza o‘rnini bosa boshladi. Bu davrdagi zirh va qurollarning aksariyat qismi temirdan yasalgan edi.

Bu davrda temir nafaqat harbiy sohada balki qishloq xo‘jaligida mehnat qurollarining yasalishi natijasida keng tarqala boshladi, katta sug‘orish tizimlari rivojlandi. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasi yutuqlaridan foydalanish sezilarli

darajada qishloq xo‘jaligi ishlarining samaradorligini oshirish imkonini berdi. Transport vositalari yaxshilandi, aholi tez suratda o‘sса boshladi, shaharlarning katta markazlari, savdo rastalari paydo bo‘ldi.

Kurashuvchi davlatlar davri nafaqat qadimgi Xitoyning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida burilish davri bo‘lib chiqdi, balki Qadimgi Xitoy tarixidagi eng qiziq ma’naviy va madaniy davrlardan birini ifodalaydi. Ijtimoiy munosabatlardagi burilish davri hamda ushbu makonda bir qator mustaqil madaniy, iqtisodiy markazlarning shakllanishi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikrlarning ko‘plab oqimlarini vujudga keltirdi. Bu davrdagi badiiy mahsulotlar, ayniqsa bronza va lakdan shuningdek, oltin, kumush, qimmatbaho toshlardan va boshqalardan yasalganligi, yumshoqligi, bezaklari nafisligi va xilma-xil turlari bilan ajralib turadi.

Shuningdek, bu davrda markaziy shaharlarda aholi ko‘payib, aholi zichligi oshdi. Savdoning jadal o‘sishi, yangi iqtisodiy sharoitlar xususiy mulkning vujudga kelishiga olib keldi. Biroq, jamiyatda quyi tabaqa vakillar va yer egalari, savdogarlar, do‘kon egalaridan chiqqan boylar o‘rtasida ziddiyatlar kelib chiqdi. Miloddan avvalgi IV asrda qirollikda juda ko‘p siyosiy islohotlar o‘tkazildi.

Miloddan avvalgi 230-yilda Sin davlati Han davlatini bosib oldi. Han davlati harbiy jihatdan nisbatan zaif va ancha kuchliroq bo‘lgan Sin davlatiga qo‘shni edi. Kurashayotgan davlatlar davrining dastlabki yillarida Sin davlati tomonidan doimiy hujumlarga uchrab turardi.

Miloddan avvalgi 225-yilda Sin davlati Vey davlatini bosib oldi. Sin davlati qo‘shini Vey davlatining shahriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bostirib kirishdi va uning poytاختini qamal qildi. Biroq, tez shahar devorlarini buzib kirish juda qiyin ekanligi sababli ular harbiy hiyla ishlatishadi. Daryordan shahar devorlarini suv bosishi uchun ishlatishadi, bu esa shaharga katta vayronagarchilik keltiradi. Natijada vaziyatni anglab yetgan Vey davlatining qiroli shoshilinch ravishda

poytaxtdan chiqib, o‘z xalqining qonini yana to‘kmaslik uchun uni Sin davlati qo‘sninga topshirishga majbur bo‘ladi.

Miloddan avvalgi 223-yilda esa Sin davlati Chu davlatiga hujum qiladi. Biroq, bu yurish muvaffaqiyatsiz tugaydi. Miloddan avvalgi 222-yilda Chu davlatiga qarshi ikkinchi harbiy amalga oshirildi va bosib oldi.

Miloddan avvalgi 222-yilda Sin davlati Chjao va Yan davlatlariga hujum qildi. Dastavval Chjaoni bosib olgandan so‘ng, Sin davlati qo‘sini o‘z e’tiborini Yan davlatini egallahsga muvaffaq bo‘ladi.

Miloddan avvalgi 221-yilda Sin davlati oxirgi jangovar davlat Sini zabitdi. Bu oxirgi mag‘lub bo‘limgan davlat edi. Si davlatining barcha shaharlari taslim bo‘lgach, Xitoyni birlashtirish yakunlandi. Shunday qilib, barcha jangovar davlatlar Sin qirolligi ostida birlashtirildi.

Miloddan avvalgi 221-yilda mamlakatni birlashtirish tugallangach, 28 yoshli In Chjen “Sin sulolasining birinchi imperatori” ya’ni Sin Shihuandi nomini qabul qildi. U “Bizning avlodlarimiz vorislik tartibiga ko‘ra ershi (“ikkinchi”), sanshi (“uchinchi”) va toki o‘n ming avlodgacha Sin davlatiga merosxo‘r bo‘ladilar deb tantanali e’lon qiladi. Ammo, bu davlat bor yo‘g‘i 14 yil yashaydi.

Sin Shihuandi mamlakat siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy sohalarida bir qator islohotlarni amalga oshirdi. “Uch jamoatchilik” nomli bosh vazir, ichki ishlar va xavfsizlik bo‘yicha ma’sul ya’ni qo‘mondon lavozimlaridan iborat davlat apparatini tashkil etdi. Ular ma’muriyat, nazorat va harbiy ishlar uchun mas’ul edilar. Chjou sulolasining davlat boshqaruvi bekor qilindi.

Miloddan avvalgi 221-yilga kelib, Sin imperiyasi keng joyni egallagandi. Sima Syanning qayd etishicha, uning hududiy chegarasi sharqda Bohay ko‘rfazigacha va Chaosyan davlatigacha (hozirgi Koreya), g‘arbda hozirgi Gansuning markaz qismigacha cho‘zilgandi.

Mamlakat hududi 36 ta yirik ma'muriy okrugga bo'linib idora qilingan. Tumanlarni bevosita imperator tomonidan tayinlanadigan boshliqlar boshqargan. Mamlakat hududiy bo'linishining quyi bo'linmalari ma'muriy hokimiyat saylangan oqsoqollarga tegishli edi. Harbiy bo'limga imperiyaning barcha qo'shinlari qo'mondoni boshchilik qilgan. Tuman harbiy bo'limlari boshliqlari unga bo'ysungan. Sud va moliya bo'limlari ham bor edi. Xarakterli jihat shundaki, davlat hokimiyatining markaziy apparatida maxsus bo'lim imperator va uning oilasining shaxsiy ehtiyojlariga xizmat qilgan. Davlat arxivining saqlanishiga maxsus boshqarma mutasaddilari rahbarlik qilib, tumanlarda ham tekshiruvlar olib borardi. Buning yordamida imperator mahalliy hokimiyat vakillari o'z vazifalarini qanchalik vijdonan bajarayotganini kuzatish imkoniga ega bo'lardi. Davlat tuzilmasini isloh qilish bilan bir vaqtda Sin Shihuandi imperiyani mustahkamlash uchun yagona qonunchilik ham joriy etdi. Kafillik tizimi Sin davri jinoyat qonunchiligining asosi edi. Eng umumiy shaklda u birinchi marta Shan Yan tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, Sin imperiyasida kafillik majburiyatları oila a'zolariga yuklangan: "Agar bir kishi jinoyat qilsa, uning butun oilasi jazolanadi". Sin imperiyasida qarindoshining jinoyati uchun jazo sifatida davlat qullariga aylantirilgan. Sin Shihuandi davrida kafolat tizimi oddiy odamlar bilan cheklangan edi. Jinoyat uchun jazolarga kelsak, ular haqidagi qoidalar asosan Shan Yan qonunlaridan olingan va o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turardi. O'lim jazosining har xil turlari qo'llanilgan: boshini tanasidan judo qilish, tiriklayin ko'mish. O'lim jazosi, masalan, otni o'g'irlash uchun tayinlangan. Bundan tashqari, yengilroq jazolar ham qo'llanilgan yoki jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxs og'ir ishlarga yuborilishi mumkin edi. Sin Shihuandi o'z hukmronligi davrida birinchi marta tanga zarb qilish, og'irlik va o'lchovlarni, shuningdek, yozuvni isloh qildi.

Aholiga soliq solishni o‘rnatish uchun o‘lchov va o‘lchovlarning yagona tizimini joriy etish zarur edi.

Ichki islohotlarni yakunlagan Sin Shihuandi xunlarga qarshi harbiy harakatlar boshlaydi. Miloddan avvalgi 215-yilda 300 000 kishilik qo‘sish xunlarga hujum qiladi va muhim g‘alabaga erishadi. Bir yil o‘tgach, Sin armiyasi Huanhening shimoliy qirg‘og‘ida mustahkam o‘rnashib olishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan so‘ng, Sin Shihuandi imperiya chegaralarini ko‘chmanchilar hujumidan himoya qilish uchun Buyuk devor qurishga qaror qiladi.

Buyuk Xitoy devori. Xitoy devorining qurilishi miloddan avvalgi IX asrda boshlangan. Chjou mamlakati hokimi Yivan xunlarning hujumidan o‘zini muhofaza qilish uchun turgan joyini baland devor bilan o‘raydi. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda tashkil topgan Si, Vey, Xan, Chjao, Yan, Sin kabi hokimlar o‘z yerlarini devorlar bilan o‘rab olishgan. Miloddan avvalgi IV asrda xitoylarning shimolida yashagan xunlar kuchaya boshladi. Shuning uchun Yan, Chjou va Sin mamlakatlarining hokimlari xunlar va “sharqiy g‘uz” lardan o‘z mamlakatlarini himoya qilish maqsadida o‘zlarining shimoliy chegaralari bo‘ylab baland va mustahkam devorlar qurban. Mana shu uchta kichik xonliklarning shimoliy chegarasi bo‘ylab qurilgan devorlar tarixiy manbalarda “Xunlarni to‘suvchi uzun devor” yoki “Sin davlatidan oldingi devor” deb atalgan. Biroq devorlar bir biri bilan ulanmagan edi. Miloddan avvalgi 221-yilda ilk markazlashgan davlatga asos solgan Sin Shihuangdi xunlarga qarshi borish uchun devorning shimoliy qismini qo‘sishcha devor qudirib, bir biriga bog‘lab chiqadi. “Van li chang cheng (万里长城, Wàn lǐ Chángchéng)” deb nomlanishiga sabab, devorning uzunligi 10 ming lini tashkil etgan edi.

U mamlakatning ichki rayonlari aholisini qo‘shib olingen hududlarga ko‘chiradi. Buyuk devor bo‘ylab jami 44 ta yangi okrug tashkil etildi. Ko‘p yillar

o‘tgach, bu joylar bo‘ylab sayohat qilib, Sima Syan Buyuk devorga tashrif buyurdi. Majburiy odamlar qo‘li bilan olib borilayotgan ishlar ko‘lami uni hayratda qoldirdi: “Ular tog‘larni buzib, daralarni to‘ldirishdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri devor qurishdi!”

Min sulolasи davridа devorning g‘arbiy qismi Jiyayuyguan nomli chegara qo‘riqxonasi gacha yetgan va 7300 kilometrni tashkil qilgan. Manjurlar hukmronligi vaqtida esa Buyuk xitoy devoriga yetarlicha ahamiyat berilmagan. Buyuk Xitoy devorining balandligi bir xil emas. Ba’zi qismining balandligi 8 m. Kengligi esa past qismi 7-8 m., tepa qismi 5 m. gacha yetgan.

Xunlarga qarshi operatsiyalar muvaffaqiyatli yakunlanganidan so‘ng, imperator janubi-sharqiy qirg‘oqbo‘yi hududlarida yashagan qabilalarga qarshi tajovuzkor yurishni boshlashga qaror qiladi. Urush miloddan avvalgi 214-yilda boshlangan. Bu imperiya kuchlari va resurslarining ulkan sa’y-harakatlarini talab qildi. Biroq, sin qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Urushuvchi davlatlar” davri qaysi yillarni o‘z ichiga oladi?
2. Urushuvchi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga izoh bering
3. Xitoyda ilk markazlashgan davlatning vujudga kelish omillari nimalardan iborat?
4. Sin sulolasи davri madaniy hayoti haqida gapiring

4-mavzu. Xan sulolasi. Buyuk Ipak yo‘li

4-mavzuda:

- Xan sulolasining tashkil topishi**
- Xan sulolasi ichki va tashqi siyosati**
- Buyuk Ipak yo‘li**

Kalit so‘zlar: Xan, Lyu Ban, Gao zu, Xan U-di, G‘arbiy o‘lka, Buyuk Ipak yo‘li;

Sin sulolasi davrida qo‘schnilar bilan urushlar, ulkan qurilish ishlari (shu jumladan, ko‘plab imperator saroylarini qurish) xazinaga qo‘srimcha daromad keltirishni talab qildi. Sin Shihuandi davrida dehqonlardan olinadigan soliq keskin oshadi ya’ni yer solig‘i o‘sha davrda hosilning 2/3 qismini tashkil qilgan edi. Xalqning noroziligidan zodagonlar vakillari foydalangan, ular o‘tmishdagi tartiblarni tiklash g‘oyasidan voz kechmagan edilar. Miloddan avvalgi 210-yilda Sin Shihuandining o‘limi imperiyaning yaqinlashib kelayotgan inqirozini tezlashtirib yubordi.

Sin imperiyasini larzaga keltirgan birinchi turtki kambag‘allar qo‘zg‘oloni edi. Sobiq Chu podsholigining tub aholisi bo‘lgan qo‘zg‘olonchilar shiorni ilgari surdilar. “Buyuk Chu davlati tiklanadi!” Ular birin-ketin shaharlarni egallahsga harakat qilishdi. Hukumat qo‘sishinlarining butun bo‘linmalari isyonchilar tomoniga o‘ta boshladi. Mahalliy jamoa oqsoqollari qo‘zg‘olon boshliqlaridan birini podshoh etib sayladilar. Bu bilan xalq urushining birinchi bosqichi miloddan avvalgi 209-208-yillarda yakunlandi.

Ikkinchi bosqichda qo‘zg‘olonchilarning ijtimoiy tarkibida va ularning yetakchiligidagi jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qo‘zg‘olonchilarga qo‘zg‘olonga qo‘shilgan eski dvoryanlar vakillari boshchilik qilib, o‘z huquqlarini tiklash maqsadida ommaviy harakatlardan foydalanishga intilishdi. Sin imperiyasiga qarshi bo‘lgan qo‘zg‘olonchilar armiyasining otryadlaridan biriga Lyu Ban

boshchilik qilgan. Miloddan avvalgi 207-yilda uning otryadi imperiya poytaxti Syanyanga boradigan yo‘lda muhim punktlardan birini egallab oldi va keyin hukumat qo‘shinlarini mag‘lub etib, poytaxtni egalladi. Biroq, Lyu Ban aholining keng ommasini o‘z tomoniga tortishga intilib, mahalliy ma’muriyat vakillariga doimo hurmat ko‘rsatdi, shu bilan birga o‘z armiyasida qat’iy tartib-intizom o‘rnatdi. Lyu Banning asta-sekin ustunligi tobora aniqroq namoyon bo‘la boshladi va isyonchilarining ko‘plab qo‘mondonlari uning tomoniga o‘tishdi. Miloddan avvalgi 202-yilning yanvarida Lyu Ban g‘alabaga erishdi. Lyu Ban yangi sulolaning boshlanishini e’lon qildi va imperator Gaozu unvonini oldi. Ba’zi manbalarda bu sulolaning boshlanish davri ikki voqeа ya’ni ba’zi hollarda miloddan avvalgi 202-yil Lyu Banning g‘alabaga erishishi, boshqalarida esa unvонни олган miloddan avvalgi 206-yilga to‘g‘ri kelishi bilan izohlanadi. Sin imperiyasi qulagandan keyin mamlakatning parchalanishining qisqa davri yakunlandi. Qadimgi Xitoyda Xan imperiyasi vujudga keldi. Bu sulola ikki qismdan iborat bo‘lib, uning biri “Ilk Xan” yoki “G‘arbiy Xan” deb nomlanadi va miloddan avvalgi 206-yil - mil. 8 yillarda hukmronlik qiladi. Ikkinchisi “So‘nggi Han” yoki “Sharqiy Han” deb atalib, miloddan avvalgi 25-220 yillarda hukmronlik qildi. Bu vaqtda Xitoyning shimoliy va g‘arbiy tomonidagi turklar, jumladan xunlar ularni xan deb atashadi. Ilk Xan sulolasining so‘nggi davrida xitoy xalqining nufuzi ortdi. Aholining soni 12 mln.233 ming oilaga yoki 60 mln. kishiga yaqin bo‘lgan. Sharqiy Xan davrida bu raqam 1 mln.ga kamaydi.⁴ Miloddan avvalgi 200 yilda ilk Xan sulolasi asoschisi Gaozu Chananda saroy qudirib uni poytaxt qilib oladi.

Gaozu hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng duch kelgan dolzarb muammolardan biri mamlakat iqtisodiyotini tiklash vazifasi edi. Sin Shihuandi olib borgan urushlar, Sin hukumatiga qarshi sodir bo‘lgan qo‘zg‘olonlar va taxtga

⁴ A. Xo‘jayev. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.

da'vogarlar o'rtasidagi besh yillik halokatli urush iqtisodiyotga juda katta zarar yetkazgan edi. Irrigatsiya inshootlari tashlab ketilgandi, mamlakat viloyatlarining unumdon yerlari halokatli darajada qisqargan edi.

Gaozu bu vaziyatdan chiqish yo'lini quyi tabaqalarga yon berish va soliq yukini yengillashtirish siyosatida ko'rdi. Yangi imperator askarlarga yer uchastkalarini olishlarini va 12 yil davomida mehnat majburiyatlaridan ozod qilishlarini belgilab qo'ydi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlari bo'lgan oilalar ham majburiyatlardan ozod qilindi. Ilgari o'z vatanini tark etgan aholi dala va uylariga qaytarildi. Ochlik davrida o'zini qullikka sotishga majbur bo'lganlarning hammasi ozod deb e'lon qilindi. Soliq endi hosilning 1/15 qismini tashkil etdi. Gaozu vorislari ham bu siyosatni davom ettirdilar, yer solig'i hosilning 1/15 qismi sifatida belgilandi, tabiiy ofatlar yuz berganda esa soliqlar umuman olinmas edi.

G'arbiy Xan davrida pillachilik bilan shug'ullanish keng tarqaldi, ayniqsa Shandun, Sichuan viloyatlari bu sohada yetakchilik qildi. Davlat xazinasiga tushadigan daromadning katta bir qismi pillachilikka asoslangan edi. Sharqiy Xan imperiyasi davrida (milodiy 25-220 yillar) pillachilik bilan shug'ullanuvchi viloyatlarning doirasi yana ham kengaydi. Xebey, Xubey, Xunan, Guandun kabi o'lklalar asosiy pillachilik hududlariga aylandi. Milodiy III asrlarga kelib esa Yanszi daryosi janubidagi o'lkalarda ham pillachilik rivojlana boshladi.

Gaozu vafotidan keyin (miloddan avvalgi 195-yil) irsiy mulk hukmdorlarining ayirmachilik holatlari tobora yaqqol namoyon bo'la boshladi. Ammo mamlakat boshqaruvi tizimidagi muammolarni bartaraf etish va markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash yo'lidagi eng hal qiluvchi qadamni U-di qo'ydi, uning hukmronligi (miloddan avvalgi 140-87 yillar) Xan imperiyasining eng yuqori gullah davri bo'ldi. U-di markazlashtirish siyosatini olib bordi. Markaziy davlat apparati mustahkamlandi. Amaldorlar faoliyatini

nazorat qiladigan nazorat inspektori qayta tiklandi. Okrug boshliqlari tomonidan amaldorlik vazifasiga qobiliyatli kishilarni muntazam tavsiya etish tizimi joriy qilindi. O‘zgarishlar davlat apparati yuqori mansabdor shaxslarining vakolatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Imperator birinchi maslahatchisining vakolatlari qisqartirildi. Konfutsiylik davlatning yagona mafkurasi sifatida qabul qilindi. Biroq, konfutsiychilikning yagona davlat mafkura sifatida qabul qilinishi birinchi Xan imperatorlari siyosatini rad etishni anglatardi.

Shuningdek, u mulk va meros munosabatlari bo‘yicha masalalarni ham hal qildi. Unga ko‘ra, o‘z mulkini to‘ng‘ich o‘g‘ilga berish man qilindi va uni barcha o‘g‘illar o‘rtasida taqsimlash belgilandi. Ushbu islohotning natijalari juda tez ta’sir qildi. Merosiy mulklar hajmining keskin kamayishi amaldorlarning amalda o‘zlarining haqiqiy kuchlarini yo‘qotishiga olib keldi va ularning qirolliklarining mavjudligi imperiya uchun endilikda xavf tug‘dirmas edi. Poytaxtda akademiya tashkil etildi, uning bitiruvchilari, qoida tariqasida amaldor lavozimiga tayinlanar edi.

O‘z ichki siyosiy vaziyatini mustahkmlagan U-di bu tashqi siyosatini yaxshilashga qaror qiladi. U xunlarga qarshi kurashda qo‘shin yaratadi. Ko‘chmanchilarga qarshi ular o‘zlarining kutilmagan hujum usullarini qo‘llashadi. Harbiy yurishlar miloddan avvalgi 127-119-yillarda amalga oshiriladi va Xan qo‘shiniga birinchi g‘alabalarni olib keldi.

Xan davlatining “G‘arbiy o‘lka” (hozirgi Shinjon va O‘rta Osiyo hududi o‘sha paytda shunday nomlangan) mamlakatlari bilan birinchi aloqalari ham xunlarga qarshi harbiy harakatlar bilan bog‘liq edi. Xunlar bilan urushga tayyorgarlik ko‘rayotgan U-di miloddan avvalgi 139-yilda Chjan Syan elchi sifatida yuboradi. Chjan Syan tufayli qadimgi xitoyliklar o‘zlarini uchun yangi olamni kashf etdilar: ular birinchi marta Baqtriya, Parfiya, Farg‘ona va Markaziy

Osiyoning boshqa davlatlari haqida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Chjan Syanning ikkinchi sayohatidan so'ng Xan imperiyasi bu davlatlarning ko'pchiligi bilan aloqalar o'rnatdi. Bu aloqalar siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega edi.

Buyuk ipak yo'li. Buyuk ipak yo'li miloddan avvalgi I ming yillikning 2 yarmidan to XV asrgacha, ya'ni dengiz yo'llarining ochilguniga qadar Sharqi G'arb bilan bog'lab turuvchi asosiy savdo yo'li hisoblanadi. Buyuk ipak yo'li atamasi ushbu yo'1 orqali savdo qilingan qimmatbaho tovar — Xitoy ipagi bilan bog'liq edi. Bu yo'1 fanga XIX asrning 70- yillaridan boshlab "ipak yo'li" nomi bilan (1877-yil) nemis tarixchisi Ferdinand Fon Rixtgofen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo'1 "G'arbiy meridional yo'1" deb atalgan. Ilk bor Xitoy hududidan boshlanib g'arbga tomon 12 ming kilometr masofaga cho'zilgan. Xitoyning Syan shahrida boshlangan Buyuk Ipak yo'li Lanjou orqali Sharqiy Turkistona kelib, bu yerdan u ikkiga ajraladi. Ipak yo'lining janubiy tarmog'i Taklamakon sahrosi (Mo'g'uliston) orqali Xo'tanga, undan Yorkentga kelib, undan Balxga tomonga o'tadi. Balxda bu yo'1 yana uch tarmoqqa ajraladi. G'arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoli tarmog'i Termiz orqali Samarqandga tomon yo'naladi. Ipak yo'lining shimoliy-g'arbiy tarmog'i esa Dunxuandan Turfon orqali Tarim vohasi Qoshg'arga boradi. U yerdan O'sh, Quva, Axsikent, Pop, Asht orqali Xo'jand, Zomin, Jizzaxga, so'ogra Samarqandga borib tutashadi. Samarqanddan esa bu yo'1 yana davom etib, Buxoro, Romitonga, undan Varaxsha orqali Farobga borib, Amul shahriga o'tadi. Amulda esa bu yo'1 Marvdan Urganch sari yo'nalgan yo'lga qo'shiladi. Marv shahri o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'li chorrahalar kesishgan eng muhim yo'1 edi.

Xitoya So'g'diyonadan asosan jun gazlama, gilam, bezak buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan. Shuningdek, Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan nasldor otlar, Badaxshondan la'l, Hindistondan Xitoya kumush va fil suyagidan

ishlangan buyumlar, ziravorlar va boshqa mahsulotlar olib kirilar edi. Markaziy Osiyodan esa Buyuk ipak yo‘li orqali boshqa davlatlarga: shisha buyumlar, quruq mevalar, zargarlik buyumlari ham tashilgan.

Xan sulolasini ko‘plab xunlar bilan bo‘lgan bosqinchilik yurishlari tufayli inqirozga yuz tuta boshladi. Miloddan avvalgi II asr oxirida armiyaning muntazzam urushlarga jalb qilinishi natijasida saroy xazinasi kamaya boshladi. Qo‘sishimcha daromad manbai olish uchun U-di miloddan avvalgi 120-yilda tuz qazib olish va temir asboblar ishlab chiqarishga davlat monopoliyasini joriy etish taklifini berdi. Tuz don bilan birga jamiyatning eng keng qatlamlari uchun muhim tovar edi. Qishloq xo‘jaligida temir asboblarning tobora keng qo’llanilishi tufayli temirga bo‘lgan talab doimiy ravishda ortib bordi. Shuning uchun, tuz konlari va metallurgiya sehlari katta daromad keltirdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xan sulolasining hokimiyat tepasiga kelish omillarini ayting
2. Xan sulolasining tashqi siyosati va bosqinchilik yurishlari haqida gapiring
3. Buyuk Ipak yo‘li va uning ahamiyati to‘g‘risida gapiring
4. Xan sulolasasi davrida eng ko‘p tarqalgan sohalar qaysi?
5. Xan sulolasasi davrining oltin davri qaysi yillarni o‘z ichiga oladi?

5-mavzu. Xan sulolalari davrida mafkura va madaniyat. Tabiatshunoslik va aniq fanlarning rivojlanishi. Sima Syan va Ban Gu.

5-mavzuda:

-Xan sulolasi davri madaniyati

-Xan sulolasi davrida din

Kalit so‘zlar: Syan hanshu, Ban Gu, Hou hanshu, Fan Hua, Chjan Xen, seysmograf, konfutsiylik

Qadimgi Xitoy tarixiga oid ko‘plab manbalar mavjud. Mazkur manbalar nafaqat Qadimgi Xitoy tarixi balki, yurtimiz tarixini o‘rganishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sima Syanning “Tarixiy xotiralar” nomli 130 bobdan iborat asarida Xitoyning qadimdan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar bo‘lgan tarixi aks ettiriladi. Ushbu asar 1959-yili Pekinda chop etilgan. Shuningdek, asarda Farg‘ona vodiysi haqida ham ma’lumotlar uchraydi.

Sima Syan miloddan avvalgi 145-yillarda Syan shahrida (taxminan hozirgi Xancheng, Shaansi provinsiyasida) tug‘ilgan, biroq ba’zi manbalarda uning tug‘ilgan yili miloddan avvalgi 135-yillar atrofida yozilgan. Miloddan avvalgi 136-yil atrofida uning otasi Sima Tan tarixchi lavozimiga tayinlangan (tàishi tàishi, muqobil ravishda “buyuk kotib” yoki “buyuk munajjim”). Buyuk tarixchining birinchi vazifasi yillik taqvim tuzib, qaysi kunlar marosimiga ko‘ra qulay yoki omadsiz ekanligini aniqlash va uni yangi yil oldidan imperatorga taqdim etish edi. Bu vazifalardan tashqari, buyuk tarixchi imperator bilan birga muhim marosimlarni o‘tkazish va har kungi voqealarni ham saroyda, ham mamlakat ichida yozib borishi kerak edi.

Miloddan avvalgi 126-yilda taxminan yigirma yoshida Sima Syan Xitoyning Xan sulolasi bo‘ylab keng qamrovli sayohatini boshladi. U o‘z sayohatini imperator poytaxti Chan’andan (hozirgi Syan yaqinida) boshladi, so‘ngra Yanszi daryosi orqali janubga, Chanshaga yo‘l oldi.

Sayohatdan keyin Sima Syan hukumatda saroy xizmatkori etib saylandi, uning vazifalari miloddan avvalgi 122-yilda imperator Vu bilan mamlakatning turli qismlarini tekshirishni o‘z ichiga olgan. Miloddan avvalgi 110-yilda o‘ttiz besh yoshida Sima Syan ba’zi “varvar” qabilalariga qarshi harbiy yurish uchun g‘arbga yuboriladi. Miloddan avvalgi 105-yilda Sima Syan taqvimni isloh qilish uchun tanlangan olimlardan edi. Sima Syan imperatorning yuqori martabali amaldori sifatida imperatorga davlatning umumiy ishlari bo‘yicha maslahat berish imkoniyatiga ham ega bo‘lgan. Avvalgi xitoy tarixchilari faqat bir sulola yoki mintaqaga e’tibor qaratgan. Sima Syanning 130 bobdan iborat hikoyasi afsonaviy imperatordan boshlanib, nafaqat Xitoyni, balki Koreya va Vyetnam kabi qo‘shti davlatlarni ham qamrab olgan.

Ban Gu- Xitoy tarixshunosi va shoiri, “sulolaviy hikoyalar” janrining yaratuvchisi (ya’ni, alohida qirolik uyiga bag‘ishlangan hikoyalar). Ban Guning otasi Ban Byao ilk Xan sulolasining qulashi va yangi Xan sulolasining yuksalishi davrida yashagan. U sulolaning qulashini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixini yaratmoqchi bo‘lib, bir paytlar Sima Syan boshlagan voqeani oxiriga yetkazmoqchi bo‘ldi, ammo bunga erisha olmadi. 20 yil ichida (62 yildan 82 yilgacha) Ban Gu yuz bobdan iborat “Xan sulolasi tarixi” ni yozdi, shundan so‘ng bu asar imperatorga taqdim etildi. Ban Guning adabiy iste’dodi imperator tomonidan yuqori baholangan.


“Syan Xan shu” (“Avvalgi Xan sulolasining tarixi”) nomli asar muallifi Ban Gu bo‘lib, asarda Xan sulolasi tarixi yoritiladi. 1962 -yilda Pekinda nashr qilingan.

“Xou Xan shu” (“Keyingi Xan sulolasining tarixi”). Asar 130 bobdan iborat bo‘lib, muallifi Fan Hua. Unda Xan sulolasi tarixi, shuningdek, O‘zbekiston, Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma’lumotlar keltiriladi.

Shuningdek, Xan davlati boshqa fanlarda ham yuqori natijalarga erishdi. Qadimgi xitoylarning astronomiya va kalendar sohasidagi muhim yutuqlari matematikaning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq edi. Sima Syanning “Tarixiy xotiralar” asari boblaridan biri osmon jismlari muammolariga maxsus

bag‘ishlangan. Shunga o‘xshash bob Ban Guning “Xan tarixi”da mavjud bo‘lib, unda 118 ta yulduz turkumi nomi berilgan. O‘sha paytda sayyoralarni kuzatishga katta e’tibor berildi. Miloddan avvalgi 104-yilda yil uzunligi 365,25 kun ekanligi hisoblab chiqilgan. Bu yilda qabul qilingan taqvim milodiy 85-yilgacha ishlatilgan. Bu calendarga ko‘ra yil 12 oydan iborat edi. Qadimgi xitoylarning quyosh-oy taqvimi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirilgan edi. Qishloq xo‘jaligi texnologiyasining eng muhim yutuqlarini jamlagan ilmiy risolalarda taqvimga katta e’tibor berildi.

Milodiy I asrda Xitoyda antik davrning eng buyuk astronomi, ko‘plab kashfiyotlar va ixtiolar qilgan iste’dodli mutafakkir Chjan Xen (78-139) yashagan. Chjan Xen dunyodagi birinchi samoviy globusni yaratdi, u samoviy jismlarning harakatini takrorladi. Muntazam ravishda astronomik kuzatishlar bilan shug‘ullanib, u qo‘zg‘almas yulduzlarni sanab, ularning sonini 2500 yorug‘lik nurida aniqladi. Chjan Xen dunyodagi birinchi seysmografni ham ixtiro qildi. Xitoyda tez-tez sodir bo‘ladigan zilzilalar ushbu dahshatli tabiiy ofatlar haqida iloji boricha tezroq bilish yo‘lini topish istagini uyg‘otdi. Ko‘p yillik izlanishlardan so‘ng Chjan Xen, manbalarga ko‘ra, Gansudagi kuchli zilzilani aniq ko‘rsatuvchi asbob yaratdi.



Seysmograf-zilzilani aniqlab beruvchi asbob

Milodiy I asrga kelib Xitoyliklar hosilning tuproq sifatiga bog‘liqligini aniqladilar va har bir ekin uchun eng qulay bo‘lgan tuproqlarni to‘qqizta toifaga ajratdilar. Taniqli xan xitoylik agronomi Fan Shen-chji o‘z davrida to‘plangan agrotexnik bilimlarni umumlashtirib, dehqonchilik usullari bo‘yicha batafsil tadqiqot tuzdi. U ekinlarni navbatma-navbat ekish usullari, sug‘orish haqida to‘liq ma’lumot berdi.

Qadimgi Xitoyda tibbiyat juda muhim rivojlanishga erishdi. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda qadimgi Xitoy shifokorlari davolash usulini qo‘llashni boshladi, keyinchalik u an’anaviy xitoy tibbiyotida keng qo‘llanildi. Miloddan avvalgi II asr boshlarida Xan qabristonlaridan birida topilgan tibbiy yozuvlarning qo‘lyozmalari juda qiziqarli edi. Ular orasida davolash bo‘yicha qo‘llanma va nihoyat turli retseptlar to‘plami mavjud. Shuningdek, 52 ta kasallikni (asab kasalliklari, isitma, ayollar va bolalar kasalliklari va boshqalar) davolash uchun 280 ta retsept mavjud. Tavsiya etilgan davolar orasida ja’mi ikki yuzdan ortiq ingredientni o‘z ichiga olgan dori-darmonlar qayd etilgan.

Xan davri yozuv taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Miloddan avvalgi III asrdan beri ipakdan yozuv materiali sifatida foydalanila boshlandi. Bambuk va yog‘och taxtalarga yozish uchun xizmat qiladigan uchli tayoq o‘rniga, Myn Tyanga tegishli bo‘lgan mo‘yqalam ixtiro qilindi.

Milodiy I asrda Xitoyliklar tarixda birinchi marta qog‘ozni ixtiro qildilar. Milodiy I asrdan boshlab qog‘oz keng tarqaldi. Yozish uchun eng qadimgi material bambuk tezda ishlatilmaydigan bo‘lib qoldi. Qog‘oz bilan bir qatorda, ular ipak matolarga yozishni davom ettirdilar, lekin asta-sekin arzonroq va qulayroq material sifatida qog‘ozga o‘tildi.

Xan davri adabiyotning gullagan davri edi. Bu vaqtida yorqin nasrlar va shoirlar yetakchi o‘ringa chiqdi. Ko‘pgina Xan imperatorlari adabiyot va san’tga

homiylik qilishgan. U di hukmronligi davrida imperator saroyida keng kutubxona tashkil etilgan. Xan imperatorlari saroyida taniqli shoirlar, yozuvchilar va olimlar yashagan. Yirik Xan shoirlaridan Lu Jia, Jia Yi, Mey Shengni va ayniqsa, ularning eng yorqinlari Sima Syan-chjuni alohida ta'kidlash kerak. Shoир Yang Syun, saroy shoiralari Banzuo Yu va Ban Chjao ijodi o'zining yuksak mahorati bilan ajralib turadi. Xan she'riyatining rivojlanishiga U di davrida yaratilgan Yue fu musiqasi kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda xalq qo'shiqlari to'planib, qayta ishlandi, musiqa asarlari yaratildi. Yue Fu qo'shiqlarining ko'pchiligi hayotdan zavqlanish va ertak fantastika motivlarini aks ettirgan bo'lsa, ularning muhim qismi xalqning og'ir hayotini aks ettiradi. Bir qator iste'dodli xan shoirlarining ijodi xalq qo'shiqlari kayfiyati bilan sug'orilgan. Bu mualliflarning asarlari mazmunan realizmi bilan ajralib turadi, ular yuksak badiiy, ammo sodda, xalq uchun qulay tilda yozilgan.

Eng qadimgi she'riy asarlarning na'munalari bizgacha miloddan avvalgi XI-VI asrlarga oid bronza idishlardagi bitiklarda yetib kelgan. Bu davrning qofiyalangan matnlari "Shijin" tarkibiga kiritilgan qo'shiqlar bilan ma'lum darajada o'xshashlikni ko'rsatadi. "Shijin" - qadimgi Xitoy she'riyatining haqiqiy xazinasi hisoblanadi. Bu yodgorlik 305 ta she'riy asarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular to'rt bo'limga birlashtirilgan. "Shijin" ning birinchi bo'limiga kiritilgan lirik xalq qo'shiqlari o'zining samimiyligi bilan ajralib turadi. Keyingi bo'limlarda asosan muallif she'rlari bo'lib, asosiy mavzulari hukmdorga xizmat qilish, harbiy yurishlar, bazmlar, qurbanliklardir. To'rtinchi bo'limda o'tmishdagi ajdodlar va hukmdorlar sharafiga bag'ishlangan qo'shiqlar mavjud. "Shijin" an'analari miloddan avvalgi IV asrdagi she'riy asarlari mualliflariga meros bo'lib qolgan. Chunki Chjanguo davri qadimgi Xitoy madaniyatining tez yuksalish davri edi. Miloddan avvalgi IV asrda Chu qirolligi ijodida zamonaviy jamiyatning qaramaqarshiliklarini yorqin aks ettirgan taniqli shoир Chu Yuan yashab ijod qilgan. Chu

Yuan she'riy sovg‘asining obrazli kuchi, misralarining ta'sirchanligi va shakl mukammalligi bu shoirni antik davrning yorqin iste'dodlari qatoriga qo‘ydi.

Qadimgi Xitoy musiqa asboblari uchta asosiy guruhga bo‘lingan: torli, shamolli va zarbli. Ushbu musiqa asboblari to‘plami Xan davrida an’anaviy “nafis” musiqa ijrosi uchun mavjud bo‘lib kelgan. Xitoyda ham asosan qo‘shni xalqlardan olingan mutlaqo yangi musiqa asboblari keng tarqalgan. Ularning aksariyati Xitoya Markaziy Osiyodan kirib kelgan.

Qadimgi davrlarda Xitoyda qurilish texnikasi to‘plami shakllana boshladi, bu keyinchalik Xan davrining saroy me‘morchiligiga o‘ziga xos xususiyatlarni berdi.

Qadimgi Xitoyda binolar qurilishining asosi devorlar emas, balki tom qismining asosiy og‘irligini olgan ustunlari edi. Ustunlarsiz bino bo‘lishi mumkin emas - bu g‘oya Qadimgi Xitoy yozma yodgorliklarida uchraydigan ko‘plab metafora va taqqoslashlarda o‘z aksini topgan. Xan davrida ustunlar baxt, farovonlik va boylik tilaklarini bildiruvchi ieroglyph yozuvlari bilan bezatilgan. Xan shaharsozligining namunasi imperiya poytaxti - qadimgi dunyoning eng yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Chan’an edi. U o‘n ikkita darvozali devor bilan o‘ralgan edi. Eng baland binolar imperator saroylari edi. Saroy binolari bir joyda to‘planmagan, balki poytaxtning turli qismlarida joylashgan edi. Ular yopiq yo‘laklar bilan bog‘langan edi, ular orqali imperator va uning mulozimlari bir binodan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishlari mumkin edi.

Qadimgi xitoy faylasuflaridan biri “It va otlarni tasvirlash qiyin, chunki odamlar ularni doimo ko‘rishadi va yaxshi bilishadi, shuning uchun o‘xshashlikning buzilishi darhol aniqlanishi mumkin. Ruhlarni tasvirlash ancha oson. Ruhlar aniq shaklga ega emas, ularni ko‘rish mumkin emas, shuning uchun uni chizish oson”, deydi. Ko‘pincha otlar va ruhlar bilan itlarni tasvirlashgan - buni

dafn etilgan qazishmalar tufayli bizga ma'lum bo'lgan ko'plab freskalar tasdiqlaydi. Biroq, bu tasviriy san'at asarlari biroz keyingi davrga tegishli, ammo Chjanguo davrida rivojlangan an'anaga asoslangan. Ayniqsa, Xan davrida portretning rivojlanishi e'tiborga molik. Ushbu janrning eng muhim va hozirda ma'lum bo'lgan asarlaridan biri 1957-yilda Luoyan yaqinidagi Xan qabristonida topilgan freskadir. Unda Miloddan avvalgi III asr oxiridagi o'zaro kurashning dramatik epizodi tasvirlangan.

Xan davridan moddiy madaniyat yodgorliklarining katta qismi kelib chiqqan bo'lib, ular o'sha davrning qurilish texnologiyasi, me'morchiligi, haykaltaroshligi, rassomligi va amaliy san'atining yuqori darajasi haqida tasavvur qilishimizga yordam beradi. Xan davri aholi punktlarining qazish ishlari, qabristondan uy va minoralarning loydan yasalgan maketlari, ayrim joylarda bizning davrimizgacha saqlanib qolgan tosh ustunlar, shuningdek, binolar tasvirlari Xan me'morchiligining yetukligidan dalolat beradi. Buni Xan imoratlarini tavsiflovchi yozma manbalardan olingen ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Imperiya ichidagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi Xan jamiyatidagi mafkuraviy oqimlarning kurashida va birinchi navbatda, falsafiy oqimlar o'rtasidagi kurashda o'z aksini topdi.

Miloddan avvalgi I asr oxiri va milodiy I asr boshlarida o'sha davrning ko'zga ko'ringan olimi Huan Tan "Sin Lun" (Yangi fikrlash) risolasini nashr ettirdi. "Sin lun" risolasida u tevarak-atrofdagi voqelik haqidagi qarashlarini bayon etgan. Huan Tan konfutsiylar va daosizm falsafiy qarashlariga keskin qarshi chiqdi. Xitoyda materializmning keyingi rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan eng ko'zga ko'ringan Xan mutafakkiri antik davrning eng yirik materialistlaridan biri Van Chon (27-97) edi. U o'zining falsafiy qarashlarini "Lun hen" ("Taqidiy nutqlar")

nomli yirik risolasida bayon qilgan. Van Chon dunyoning abadiyligi va moddiyligini tan oldi.

Van Chon konfutsiylik konsepsiyasida osmonning ongли faoliyatini aks ettirib, moddiy dunyoning tabiiy rivojlanishi tamoyiliga qarshi chiqdi. Osmonni ilohiy mavjudot sifatida konfutsiylik talqiniga qarshi gapirgan Van Chon osmonga materialistik talqinni berib, “osmon yerga o‘xhash jismdir” deb ta’kidlagan. Biroq, Vang Chon osmon va yerning abadiy mavjudligi pozitsiyasini ilgari surar ekan, ularni o‘zgarmas narsa deb hisobladi, bu uning falsafasining metafizik mohiyatini namoyon qildi. Van Chon o‘z risolasida bilish nazariyasiga katta e’tibor berib, real olamni hissiy idrok etishni bilim manbai deb hisobladi. U shunday deb yozgan edi: “Agar inson atrof-muhitni eshitmasa va ko‘rmasa, u haqida tasavvurga ega bo‘lолmaydi. Van Chon Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, antik davr donishmandlari ega bo‘lgan tug‘ma bilimni, sezgini rad etdi.

Vang Chon va ushbu yo‘nalishdagi boshqa faylasuflarning materialistik ta’limotlari konfutsiylik vakillarining shiddatli hujumlarini keltirib chiqardi. Biroq Liu He (Ven-di, 179-157) davrida Konfutsiy risolalarini ta’qiqlash to‘g‘risidagi Sin davlati farmoni bekor qilingandan so‘ng, klassik kitoblarni tiklash, ko‘plab sharhlar va qadimgi matnlarni filologik o‘rganish bo‘yicha jonli faoliyat boshlandi.

Qadimgi Konfutsiy risolalarining turli ro‘yxatlarining haqiqiyigligi to‘g‘risida o‘z versiyalarini ilgari surgan bir qancha klassik matnlarni o‘rganish va talqin qilish maktablari shakllandi. U di davridan boshlab hukmron tabaqanining rasmiy mafkurasiga aylangan yangilangan konfutsiylik asta-sekin o‘ziga xos davlat diniga aylana boshladi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Xan sulolasi davriga oid tarixiy manbalarning o‘ziga xosligi nimalardan iborat?
- 2.Xan davrida ilm-fanda qanday yutuqlarga erishildi?
- 3.Xan davri she’riyatining o‘ziga xos jihatlarini ayting.
4. Xan davri me’morchiligi qanday uslublarni o‘z ichiga olgan edi?
- 5.Xan davrida qaysi falsafiy ta’limotning o‘rni yuqori edi?

6-mavzu. Uch qirollik davrida Xitoy. Janubiy va Shimoliy sulolalar davri (4—6-asrlar)

6-mavzuda:

- Uch qirollik davri**
- Janubiy va Shimoliy sulolalar**
- Janubiy va Shimoliy sulolalar davri madaniyati**

Kalit so‘zlar: “Sariq peshonabog‘lilar”, Uch podsholik, Vey, Shu, U, Jin davlati, Nan bey chao

Xan davlati boshqaruving oxirgi yillaridagi noroziliklar milodiy II asrda saroyda boshlangan keskin siyosiy kurash bilan bog‘liq edi. “Olimlar” deb nomlangan ijtimoiy guruhlardan biri saroy zodagonlarini konfutsiylik nuqtai nazaridan tanqid qilgan. Imperatorga yaqin amaldorlar esa “olimlar”ga qarshi chiqdilar. 169-yilda ikki qarama qarshi kuchlar o‘rtasidagi kurash avjiga chiqdi. Imperator Lin di amaldorlarning, eng faol “olim” larni hibsga olishni buyurdi. Konfutsiylikning tayanchi bo‘lgan poytaxt akademiyasi talabalari qatag‘onga uchradi. Yuzdan ortiq odam o‘ldirildi va qandaydir tarzda “olimlar” guruhiga aloqador bo‘lgan har bir kishiga davlat xizmatiga kirish ta’qiqlandi. Faqat 184-yilda “Sariq peshonabog‘lilar” qo‘zg‘oloni boshlangandan so‘ng, imperator Lin di barcha qatag‘on qilingan “olimlar”ni kechirdi. II asrda Xan imperiyasi boshidan kechirgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz sharoitida daoizm g‘oyalari eng kambag‘al dehqonlarning keng ommasi orasida qo‘llab-quvvatlandi. Falsafiy ta’limot sifatida vujudga kelgan daosizm asta-sekin diniy-tasavvufiy qarashlar tizimiga aylandi. Mamlakatning turli hududlarida “buyuk farovonlik yo‘li” ni tezroq amalga oshirish muqarrarligini targ‘ib qiluvchi yashirin sektalar paydo bo‘ldi.

Bu sektalarning eng yirik rahbari Chjan Jyao bo‘lib, u “buyuk donishmand va mehribon ustoz” unvonini oldi. An’anaviy tibbiyot vositalaridan foydalangan

holda, Chjan Jyao davolash bilan shug‘ullangan, u asosan kambag‘allar orasida mashhur edi. Chjan Jyao tarafдорлари “ко‘к осмон аллақашон о‘лик, унинг о‘рнини сариқ осмон билан алмастирish kerak” deb ма’руза qila boshladi. Bu vaqtga kelib qo‘зг‘олонга тайюргарликning boshlanishi vaqtি belgilandi.

184-yilning erta bahorida imperiyaning turli qismlarida bir vaqtning o‘zida qo‘зг‘олон ко‘тарildi. Qo‘зг‘олончилар boshlariga sariq belbog‘ bog‘ladilar. Bu buyuk farovonlikning yangi davrining ramzi edi. Shuning uchun bu mashhur harakat “sariq peshonabog‘лilar” nomini oldi. Qo‘зг‘олонни bostirish uchun qirq ming kishilik qo‘shin yuborildi, lekin qo‘зг‘олончиларни yengishda yirik yer egalari otryadlari asosiy rol o‘ynadi. Chjan Jyao vafotidan keyin (184-yil kuzi) harakat o‘zining yagona yetakchiliginи yo‘qotdi. 184-yil oktabrda Guanjonda (hozirgi Xebey provinsiyasi) isyonchilar tor-mor etildi. Shundan so‘ng amalgamoshirilgan qirg‘in natijasida kamida 80 ming kishi halok bo‘ldi.

Qo‘зг‘олончилarning asosiy kuchlari mag‘lubiyatga uchraganiga qaramay, 185-yilda qo‘зг‘олон yangi kuch bilan avj oldi. Hukumat qo‘shinlari ularni parcha-parcha sindirishga muvaffaq bo‘lishdi. 188-207 yillarda mamlakatda tarqoq qo‘зг‘олонлар to‘xtamadi, ular shafqatsizlik bilan bostirildi. Ammo Xan imperiyasi qo‘зг‘олон yetkazilgan zarbadan hech qachon qutula olmadi. 189-yilda imperator Lin-di vafotidan so‘ng, poytaxtda amaldorlarning qudratli guruhiga qarshi fitna uyushtirildi. Fitna yetakchilaridan biri Yuan Shao edi. Imperator Lin-dining yosh o‘g‘li taxtga o‘tirdi, poytaxt Chan’anga o‘tkazildi va mamlakatdagi hokimiyatni qo‘lga oldi. Buning ortidan “sariq peshonabog‘лilar” qo‘зг‘олонини bostirish paytida ko‘tarilgan harbiy rahbarlar o‘rtasida keskin kurash boshlandi. Fuqarolar nizosi yagona imperiyaning qulashiga olib keladi. Oqibatda uchta mustaqil davlat - Vey, Shu va Vu davlatlari vujudga keladi va “Uch qirollik” davri boshlanadi.

Qadimgi Xitoy jamiyatida II-III asrlar yangi feodal munosabatlarining boshlanishini bildiradi.

II asr oxiri va III asr boshlari Xitoy imperiyasi hududida paydo bo‘lgan uchta Vey (魏 Wei), Shu (蜀 Shu) va U (吳 Wu) davlatlari o‘rtasidagi to‘qnashuv va ichki siyosiy nizolar davri edi:

Vey davlati shimolda - poytaxti Loyanda;

Shu davlati janubi-g‘arbiy qismida - poytaxti Chendu shahrida;

U davlati janubi-sharqda - poytaxti Uchanda.



III asrning boshlarida qudratli Xan imperiyasi tanazzulga yuz tutdi. Sodiqlik va sadoqat g‘oyasi, ritsar axloqi va zodagonlarga sig‘inish, birodarlik va hamfikrga qarshi kurashadigan fikrdoshlar ko‘paydi. III asrning boshlarida qudratli Xan imperiyasi tanazzulga yuz tutdi. Zodagonlarga sig‘inish, birodarlik va hamfikrga qarshi kurashadigan fikrdoshlar ko‘paydi. 213-yilda Xan imperatori Huanhe daryolari havzalaridagi ulkan hududlarni o‘z qo‘mondoni Sao Saoga

topshirdi. Ushbu hudud “Vey” deb nomlandi. Garchi 216-yilda Sao Sao vang (“hukmdor”) unvoniga sazovor bo‘lgan va aslida o‘z yerlarini diktator huquqlari bilan mustaqil ravishda boshqargan bo‘lsa-da, u oliv hokimiyatni talab qilmagan va imperatorning ustunligini rasman tan olgan. 220-yilda Sao Sao vafotidan so‘ng, uning o‘g‘li Sao Pey oxirgi Xan imperatorini taxtdan tushiradi va o‘zini butun Xitoyning hukmdori deb e’lon qiladi.

Veyning raqibi 221-yilda qo‘mondon Lyu Bey tomonidan tashkil etilgan Shu shohligi edi. Lyu Bey zamonaviy Sichuan hududiga joylashishdan oldin turli siyosiy kuchlarga qo‘shildi. O‘z qirolligiga asos solgan Lyu Bey uni “Xan” deb atagan, o‘zini esa Xan imperatorlari an‘analarining davomchisi deb hisoblagan. Biroq, bu nom hech qachon amalda olinmagan. Lyu Bey shohligi “Shu” nomi bilan tarixda qoldi.

V asrining oxirlarida U qirolligini yana bir xan qo‘mondoni - Sun Tsey boshlab berdi. U imperatorlik mulklerining bir qismini egallab oldi va bu yerda o‘z siyosatini olib borishni boshladi. 222-yilda Sun Tseyning merosxo‘ri Sun Chuan imperator unvonini oldi. Raqiblaridan farqli o‘laroq, u o‘zini Xanlarning vorisi deb hisoblamadi va boshqa davlat yaratishga harakat qildi.

Uch qirollik davrining eng qudratli davlati Vey edi. Sao Sao islohotlari tufayli bu yerda kuchli armiya yaratildi, shuningdek qishloq xo‘jaligi tiklandi. Vey davlati qochqin dehqonlarni qabul qilib, ularga yer ajratdi, ammo buning evaziga ulkan soliqlar to‘lashni talab qildi. Sao Sao o‘z davlatida harbiy aholi punktlarini ham tashkil etgan: ularda yashagan askarlar jangovor xizmatdan bo‘sh vaqtlarida yerni rivojlantirishga majbur edilar.

Sao Saoning hokimiyatga kelishi Vey davlatiga siyosiy raqiblar va ko‘chmanchilar bilan muvaffaqiyatli kurashishga imkon berdi. Biroq, qo‘mondonning merosxo‘rlari u qadar sezgir va iste’dodli emas edilar. Sao Sao

vafotidan 20 yil o‘tmay, shohlik tartibsizliklarga to‘ldi. Saroy zodagonlarining turli xil guruhlari hokimiyat uchun kurashdilar. 249-yilda rasmiy ravishda Sao tarafdarlarining vakillari hokimiyatda qolishdi, ammo ular endi qandaydir tarzda siyosatga ta’sir o‘tkaza olmasdilar.

Shu podshohligida barpo etilganidan so‘ng, darhol Vey podshohlikiga o‘xhash islohotlar amalga oshirildi. Biroq, Veyda bo‘lgani kabi, tez orada Shu podshohligi ham ichki nizolarga tushib qoldi. Ichki nizolarning natijasi mamlakatning ikki qismga bo‘linishi edi: obod janubiy qism va zaif shimoliy qism. Tez orada esa Vey davlati uchun oson o‘lja bo‘ldi.

U davlati qirolligida esa alohida vaziyat vujudga kelgan edi. Geografik joylashuvi tufayli u qo‘shnilaridan ajratilgan va dastlab fuqarolararo nizolarda deyarli qatnashmagan. Hatto bir vaqtlar Shu shohligi bilan do‘stlik munosabatlari o‘rnatilgan edi.

U podshohligi joylashgan hududlar deyarli rivojlanmagan, bu yerda aholi kam edi va madaniyat yomon rivojlangan edi. Biroq, notinchlikdan qochgan shimollik qochqinlar bu yerga ko‘chib kelishdi. Ular o‘zлari bilan rivojlangan madaniyat va yerga ishlov berishning yangi usullarini olib kelishdi. Davlat boyib bora boshladi, ammo aholisi jihatidan u hali ham qo‘shnilaridan ancha past edi, bu oxir-oqibat U podshohligining zaifligining asosiy sababi bo‘ldi. Vey davlati qo‘shini janubiy qirolliklarga qarshi hujumni boshladilar. 263-yilda Vey qo‘shinlari Shuga bostirib kirdi. Ikki qismga bo‘lingan Shu deyarli bosqinchilarga javob qaytarolmadi. Oxirgi hukmdor Shu unvonidan mahrum qilindi va qirollikning o‘zi Vey davlati tarkibiga kirdi. 265-yildagi g‘alabasining belgisi sifatida harbiy rahbar Sima Yan Sao guruhidan so‘nggi hukmdorni lavozimidan bo‘shatdi, o‘zini yangi sulola - Jin asoschisi deb e’lon qildi va “U di” nomini oldi. Tarixchilar 265-yilni Xitoy tarixidagi eng uzoq bo‘lmasa ham, yangi bosqichning

boshlanishi 420-yilgacha davom etgan Jin davri deb belgilaydilar. 280-yilda Jin davlati U davlatiga hujum qildi. Qat’iy qarshilikka qaramay, U kuchlari yengildi va davlat hududi Jin imperiyasining tarkibiga kirdi. Bir muddat Jin davlati Xitoyni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq, bu birlik davri ham uzoq davom etmadi. U Di mamlakatni mustahkamlash va farovon davlatni yaratish uchun barcha zarur choralarni ko‘rdi. Ammo vafotidan keyin Xitoy yana betartiblik va anarxiyaga to‘lib ketdi. O‘sha paytda boshlangan xalqlarning buyuk migratsiyasi tufayli davlat ko‘chmanchilar bosqiniga uchradi va bu birlashish jarayonini jiddiy ravishda sekinlashtirdi. Xitoyning ilgari yomon rivojlangan janubida ikkita mustaqil davlatning shakllanishiga olib kelgan Uch qirollikning qisqa davri janubning rivojlanishiga hissa qo’shdi. Mamlakatning 280-yilda birlashishi, go‘yo yana bir sulolalar davrining tugashi edi, bu Sima Yan islohotlarida o‘z aksini topdi: ajratish tizimini joriy etish to‘g‘risidagi farmon muhim ahamiyat kasb etdi. 280-yilgi farmonga binoan mamlakatning barcha aholisi oilaviy yer uchastkalarini oldi; ularni yetishtirish huquqi uchun har bir oila soliq olgan boshqa yerlarni yetishtirishga majbur edi.

Birinchidan, mamlakatda hukmdor qarindoshlariga katta mulklarni ajratib qo‘ydi, ular tez orada davlat tarkibidagi davlatlarga aylanib ketishdi, ular sulola asoschisi vafotidan keyin qo‘zg‘olonga sabab bo‘lgan, bu esa faqat IV asr boshlarida bostirilgan.

Ikkinchidan, yangi sulola hukmdorlari butun mamlakat bo‘ylab islohotlarni amalga oshirishni kuzatishga deyarli vaqt va kuch yo‘qligi sababli, IV asrning boshidan boshlab ko‘chmanchi shimoliy qabilalar birin-ketin Shimoliy Xitoya bostirib kira boshladilar, natijada Jin imperiyasi o‘z faoliyatini tugatdi va uning o‘rnini Shimoliy va Janubiy sulolalar (Nan bei chao) davri egalladi.

Shimoliy va Janubiy sulolalar davri (Xitoycha 南北朝, Nán Bei Cháo) -

Xitoy tarixining milodiy 420 - 589 yillar oralig‘ida davom etgan davri. Suy sulolasigacha mavjud bo‘lgan. Ba’zan u olti sulola deb nomlanuvchi uzoqroq davrning ikkinchi qismi sifatida qaraladi. Fuqarolar urushi va siyosiy betartiblik asri bo‘lsada, bu davrda san’at va madaniyatning gullab-yashnashi, texnika taraqqiyoti kuzatiladi. Mahayana buddizmi va daoizmining tarqalishi davri edi.

Shimoliy sulolalar:

- Shimoliy Vey (386 — 534 yillar);
- Sharqiy Vey (534 — 550 yillar);
- G‘arbiy Vey (535 — 556 yillar);
- Shimoliy Si (550 — 577 yillar);
- Shimoliy Chjou (557 — 581 yillar).

Shimoliy Vey davlatida Toba Vey (拓拔 魏) yoki Yuan Vey (元魏) nomi 439-yilda Shimoliy Xitoyning birlashishi bilan mashhur bo‘lgan. U shuningdek san’at rivojini keng moliyalashtirgan, shu davrgacha ko‘plab asarlar saqlanib qolgan. 494-yilda imperiya poytaxtni Datondan Luoyangga ko‘chirdi.

Sharqiy Vey (東魏 - Dong Vey) - 534 -550 yillarda Shimoliy Xitoy hududida, Shimoliy va Janubiy sulolalar davrida mavjud bo‘lgan davlat. Sharqiy Vey imperiyasi 534-yilda Shimoliy Vey qirolligi qulaganidan keyin paydo bo‘ldi.

G‘arbiy Vey - Shimoliy va Janubiy sulolalar davrida Shimoliy Xitoy hududida 535-yilda mavjud bo‘lgan davlat. 557-yilga kelib, imperiyaning maydoni 1,3 million km² ni tashkil etdi. G‘arbiy Vey imperiyasi 534-yilda Shimoliy Vey imperiyasi qulaganidan so‘ng, general Gao Huan bosqinidan qochib imperator Syao Vu di Luoyandan Guanchjongacha qochib ketganida paydo bo‘lgan.

Shimoliy Si – 550-yildagi Shimoliy Xitoyda davlatlaridan biri. Poytaxti Yechen. Shimoliy Si hukmronligi imperatorlarning o‘zboshimchalik va qobiliyatsizligi (Ven Syuan-di, Vu Chen-di va Gao Vey), amaldorlarning

korrupsiyasi va armiyaning tanazzulga uchrashi bilan ajralib turardi. Shimoliy Si tashkil topgan davrda (Shimoliy Chjou va Chen bilan taqqoslaganda) Xitoyda eng qudratli podshohlik bo‘lgan bo‘lsa-da, u asta-sekin yemirilib, yo‘q qilindi.

Shimoliy Chjou – 557-yildagi Shimoliy Xitoyda Shimoliy va Janubiy sulolalar davridagi davlat. 576-yilga kelib imperiyaning maydoni 1,5 million km² ni tashkil etdi. G‘arbiy Vey davlati o‘rnida paydo bo‘ldi. Keyinchalik, uning o‘rnini Suy sulolasi egalladi.

Janubiy sulolalar:

- Lyu Sun sulolasi (Janubiy Sun) (420 — 479 yillar);
- Janubiy Si sulolasi(479 — 502 yillar);
- Lyan sulolasi (502-557 yillar);
- Kechki Lyan (555—587 yillar);
- Chen sulolasi (557 — 589 yillar)

Lyu Sun sulolasi - Sulola asoschisi Lyu Yuy. 420- yilda Sharqiy Jinda hokimiyat Lyu Yuy qo‘liga o‘tganida tashkil etilgan. Poytaxti – Jiankan shahri (hozirgi Nankin). Sulolaning asoschisi Lyu Yuy kambag‘al oiladan chiqqan, Janubiy va Shimoliy sulolalar davrining eng yaxshi sarkardalaridan biri hisoblangan.

Janubiy Si sulolasi- Xitoydagi janubiy sulolalarning ikkinchisi, uning o‘rnini Lyang sulolasi egallagan. U 479-yilda tashkil topadi. O‘zining 23 yillik tarixi davomida sulola doimiy beqarorlikka duch keldi. Janubiy Si sulolasi imператорлари shimoliy Xitoy - Shimoliy Vey sulolasi bilan tez-tez urushlar olib borishgan va turli darajadagi muvaffaqiyatlarga erishganlar. Biroq, so‘nggi imператорлар даврида tez-tez bo‘lib turadigan qo‘zg‘olonlar katta xavf tug‘dirdi.

Lyan sulolasi - (502–557 yillar) shuningdek, Janubiy Lyan (南 梁) nomi bilan tanilgan, Xitoyda uchinchi janubiy sulola bo‘lgan. Poytaxti zamonaviy Nankin hududida joylashgan Jyankan shahri edi.

Chen sulolasi - Xitoyda 557-yilda mavjud bo‘lgan Janubiy sulolalarning to‘rtinchi va oxirgisi. Suy sulolasi tomonidan vayron qilingan. Imperator Vu tomonidan sulolaga asos solingan paytda uning mavqeyi nihoyatda zaif bo‘lgan, u avvalgi Lyan sulolasi hududining ozgina qismiga egalik qilgan.

Janubiy sulola davrida ayniqsa adabiyot va she’riyat rivojangan bo‘lib, Shimoliy sulola adabiyoti esa sodda ko‘rinishda rivojlandi. Shimoliy va janubiy sulola davri shoirlari asosan Qadimgi Xitoyning eski klassik shoirlariga taqlid qilishgan.

Shuningdek, Shimoliy va janubiy sulolalar davrida etnik xanlarning Xitoyning janubiy qismiga ya’ni Yanszi daryosi quyi qismiga ko‘chishi sodir bo‘ldi. Bu esa cho‘l va boshqa etnik guruhlар tomonidan ajratilgan yerlarning rivojlanishiga yordam berdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xan davlatining parchalanishiga qanday omillar ta’sir qildi?
2. Uch qirollik davlatlari va ulardagi ichki boshqaruv siyosati haqida gapiring
3. Uch qirollik davrining tugashi va Jin davlatiga asos solinishi haqida gapiring
4. Janubiy va shimoliy sulolalar davri madaniyati va bu davrning o‘ziga xosligi haqida gapiring
5. Janubiy va shimoliy sulolalar davridagi muhim voqealar haqida gapiring

7-mavzu. Buddizm, daosizm va konfutsiychilik o‘zaro ta’siri sharoitida Xitoy madaniyati

7-mavzuda:

-Buddizm dinining Xitoyda tarqalishi

- Daosizm va konfutsiylik ta’limotlarining rivojlanishi

Kalit so‘zlar: Siddxarta Gautama, “Pancha va shila”, Meditatsiya, donishmandlik, Tyantay va Chan maktablari

Buddizm dinining asoschisi Siddxarta Gautama (Shakyamuni, Buddha, Bxagavan) hisoblanadi. Bu ismlar ma’nolari quyidagicha: Siddxarta- shaxsiy ism, Gautama- urug‘ nomi, Shakyamuni- “Shakya qabilasidan chiqqan donishmand”, Buddha- “nurlangan”, Bxagavan-“tantana qiluvchi”. Ular ichida eng mashxuri Buddha bo‘lib, shundan bu dinga Buddizm nomi berilgan. Siddxarta Gautama miloddan avvalgi 600-400 yillarda yashagan. Buddha va uning izdoshlari hech qanday yozuv qoldirmaganlar. Biroq uning monastir hayoti, ta’limotlari to‘g‘risidagi qoidalari yod olingan. Miloddan avvalgi II asrda birinchi buddizm yozuvlari yozilgan paytgacha og‘zaki an’ana bilan yetib kelgan. Bu din dastlab Hindistonga, keyinroq Sharqning ko‘pgina davlatlariga (Xitoy, Birma, Yaponiya qisman O‘rta Osiyo hududiga) tarqaladi.

Buddizm ta’limoti, asosan, 3 qismdan iborat: axloq, meditatsiya va donolik;

1. Axloq normalari- “Pancha va shila” deb nomlanib, Buddaning besh nasihatini qamrab oladi.

- 1) qotillikdan saqlanish;
- 2) o‘g‘rilikdan saqlanish;
- 3) gumrohlikdan saqlanish;
- 4) yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- 5) mast qiluvchi narsalardan saqlanish;

2. Meditatsiya esa quyidagi 8 ta amalni o‘z ichiga qamrab oladi:

- 1) to‘g‘ri tushunish;
- 2) to‘g‘ri niyat qilish;
- 3) o‘zini to‘g‘ri tutish;
- 4) to‘g‘ri anglash;
- 5) to‘g‘ri harakat qilish;
- 6) to‘g‘ri hayot kechirish;
- 7) to‘g‘ri fikr yuritish;
- 8) to‘g‘ri gapirish;

3. Donishmandlik

Donishmandlik- bu buddizm dinining asosiy qismi bo’lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri aanglashdan iborat.

Buddizm dini va xitoylik buddizm tarafдорлари Xitoy tarixi davomida hukmdorlardan turli xil qo‘llab-quvvatlashga va shu bilan birga ta’qiblarga duch kelishgan. Hatto dinni yo‘q qilish maqsadida ibodatxonalar va buddizm yozuvlarini yo‘q qilishgacha borganlar. Sin sulolasи davrida (miloddan avvalgi 221-206 yillar) imperator Sin Shihuandi hukmronlik davrida barcha dinlarni ta’qiqladi va xalqni qonuniylik falsafasini qabul qilishga majbur qildi. Diniy asarlarning yo‘q qilinishi tufayli bu davrda xalqning ijtimoiy hayotida dinning o‘rnini aniqlash biroz mushkul.

Xitoyda buddizm dini yozuvlarning dastlabki na’munalarini deyarli 2000 yil oldin Xan sulolasи (miloddan avvalgi 206 - milodiy 220 yillar) da topish mumkin, bu yerda buddizm mahalliy daosizm va xalq dini bilan birlashadi. Xan sulolasи qulaganidan so‘ng, undan keyingi sulolalar o‘z dinlarini qabul qildilar. Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyodagi buddizm vakillari bilan turli darajada madaniy aloqalar o‘rnatildi. Ushbu mamlakatlarda turli xil

mazhablar va buddaviylik maktablari rivojlanib, ularning ta'limotlari xitoy buddizm vakillari tomonidan zamonaviy xitoy buddizmini shakllanishiga yordam berdi.

Maxayana buddizmining Xitoy buddizm tarixidagi eng yuqori cho'qqisi davrida Xitoyda to'rtta asosiy buddaviylik maktablari paydo bo'ldi: Sof yer buddizmi, buddizmning Chan maktabi, Tyantay buddizm maktabi va Huayan buddizm maktabi.

III asr davomida buddizm yanada chuqur ildiz otib rivojlangan bo'lib, IV asrda yuksak rivojlanish darajasiga yetdi. Markaziy Osiyoga ayniqsa, Sharqi Turkistonga islom dini tarqalgunga qadar 1000 yilga yaqin davr mobaynida bir qancha xitoylik budda rohiblar Buyuk ipak yo'li orqali Hindistonga borgan.

Chan maktabi Xitoydagi buddizmning eng ko'p tarqalgan maktabi bo'lib, g'arbda yaponcha Zen nomi bilan mashhur.

Sof yer buddizmi bu Xitoyda eng qadimgi va eng mashhur buddaviylik maktablaridan biridir. Milodiy 402-yilda rohib Huy yan Xitoyning eng mashhur buddaviy jamiyatlaridan biri - Janubi-Sharqiylar Xitoyning Lu tog'idiagi "Oq nilufar" jamiyatini tashkil qildi. Keyinchalik bu jamiyat Sof Yer Buddizmi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Dastlabki yana bir yirik urf-odatlar buddizm rohibi Sziyyiy tomonidan tashkil etilgan Tyantay buddizm maktabi edi. Tyantai boshqa turli xil buddizm maktablarining paydo bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Keyinchalik sof yer buddizmi ham, Tyantay ham boshqa mamlakatlarga tarqala boshladi, sof yer buddizmi esa Yaponiyada buddizmning hukmron maktabiga aylandi.

Huayan buddizm maktabi birinchi bo'lib, Xitoyda Tan sulolasiga davrida paydo bo'lgan. Ushbu buddizm maktabi beshta rohib rahbarligida tashkil etilgan: Tu-Shun, Chi-Yen, Fa-Syan, Chen-Kuan va Key-Fen.

Keyinchalik buddizm ibodatxonalari paydo bo‘la boshladi, ularning asosiy diqqat markazlari Loyan va Penchen shaharlari bo‘lib, buddizm faoliyati rivojlanan boshlagan birinchi joylar hisoblanadi. Loyan yaqinidagi milodiy 67-yilda qurilgan budda ibodatxonasining markazida to‘rtburchak yog‘och pagoda bo‘lgan. Sharqiy Jin sulolasi hukmronligi davrida (317-420) Xitoyda ikkita pagodali ibodatxonalar paydo bo‘la boshladi. Janubiy va Shimoliy sulolalar davrida (420-589) esa ibodatxonalar va monastirlar hududida bir nechta yodgorlik minoralari vujudga keldi. Ulardan ba’zilari hech qanday yodgorliklarni saqlab qolmagan. Ulardan ba’zilari esa mashhur yoki oddiy rohiblar ko‘milgan joyda o‘rnatalgan edi. Keyingi bir necha asrlar davomida Xitoy buddizmdan keyin asta-sekin buddizm ibodatxonalari ko‘paya boshladi. G‘arbiy Jin sulolasi davrida (265-316 yillar) buddizm ibodatxonalarining soni yuzdan ortiq edi.

Xitoy buddizmi V-VI asrlarda eng yuqori darajaga yetdi. Ham Shimoliy, ham Janubiy sulolalar boshqaruvida diniy ishlarni boshqarish uchun maxsus bo‘lim tuziladi, so‘ngra ruhoniylarni rasmiy boshqarish tizimi butun mamlakatga tarqala boshlaydi. Natijada buddizm ibodatxonalarining soni sezilarli darajada ko‘paydi va butun mamlakat bo‘ylab tarqaldi. Shu bilan birga, buddizm ibodatxonalarining me’moriy shakllari va ko‘rinishi bir xil ko‘rinishda edi. IV asr oxirida Shimoliy Vey hukmdorlari buddizm dinini qabul qildilar. Hukmdorlarning farmoni bilan Shimoliy Xitoy birlashmasidan oldin ham ibodatxonalar qurilishi boshlandi. Shimoliy Vey hukmdori tomonidan qurilgan birinchi imperatorlik homiysi bu- buddizm monastiri edi.

Sharqiy Xan davridan buyon Loyan buddizm dinining asosiy joyi bo‘lib kelgan. III asrdagi urushlar vaqtincha pasayib ketishiga qaramasdan, Loyan Shimoliy Veyning kuchli imperatorlik homiyligi bilan V asrning oxirida yana Shimoliy Xitoyning siyosiy va diniy markaziga aylandi. Manbalarda yozilishicha,

faqat poytaxtda va uning atrofida mingdan ortiq buddaviylik ibodatxonalarini bo‘lgan va butun Shimoliy Vey davlatida buddizm ibodatxonalarining umumiyligi soni o‘n ming ziyod edi.

II asrning ikkinchi yarmida daoizm tarqalishining asosiy sababi 184-204 yillardagi “sariq peshonabog‘lilar” qo‘zg‘oloni edi. Daoizm deyarli hech qachon rasmiy din bo‘lmagan, aksincha. Ammo daosizm tubida olimlar, siyosatchilar va yozuvchilarni ilhomlantirgan yangi g’oyalar muntazam ravishda tug‘ilar edi. Xitoydagagi dehqonlar qo‘zg‘olonlari va sulolalarni ag‘darish bilan qo‘zg‘olonlar ham daoizm tubida paydo bo‘lgan. Daoizm yana ikki oqimga bo‘lindi: bir tomonidan Sun Jyan va In Ven maktablari, ikkinchi tomonidan Chjuan Chjou maktablari.

Olti sulola davrida samoviy yo‘lboshchilar maktabi butun Xitoy bo‘ylab tarqaldi, ammo boshqa maktablar mashhur bo‘ldi va Samoviy yo‘lboshchilarning ta’siri susaydi.

Miloddan avvalgi 136-yilda imperator U di davrida u rasmiy ta’limot deb e’lon qilinganidan keyin u ikki ming yildan ortiq (1911-yil burjua Sinxay inqilobigacha) hukmron mafkura bo‘lib qoldi va feodal-mutlaq hokimiyat mavjudligini qo‘llab-quvvatladi. Konfutsiylik ta’limotida diniy xususiyatlar kuchayib bordi. Osmonni oldindan belgilab beruvchi ilohiy kuch sifatida, jamiyatning, odamning osmon irodasiga bog‘liqligi, suveren hokimiyatning ilohiy kelib chiqishi – “osmon o‘g‘li”, subyektning sodiqligi haqidagi fikrlar berilgan edi. Shunday qilib, Konfutsiylik hukmron mafkura sifatida, asrlar davomida “osmon irodasi”ning ijrochisi sifatida imperatorga sig‘inishni targ‘ib etib, xalqda “osmon o‘g‘liga” hurmatni, boshqa xalqlarga munosabatni singdirdi. Konfutsiylik axloqiy, siyosiy va diniy tizim sifatida jamiyat hayotining barcha jahbalariga kirib bordi va ko‘p asrlar davomida axloq, oilaviy va ijtimoiy an’analar, ilmiy-falsafiy tafakkur

me'yorlarini belgilab berdi, ularning keyingi rivojlanishiga to'sqinlik qilib, xalq ongida, odamlar, ayniqsa ziyolilar orasida ma'lum xususiyatlarni shakllantirdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Buddizm dinining asosiy mohiyati haqida gapiring
2. Buddizm dini qachon Xitoy hududiga kirib kela boshladi?
3. Buddizm dining Uzoq Sharq mintaqasida tarqalishi haqida gapiring
4. Buddizm dinining Xitoyda qaysi maktablari keng tarqaldi?
5. Daosizm va konfutsiylik ta'limotlarining jamiyatdagi o'rni haqida gapiring

8-mavzu. Suy sulolasasi

8-mavzuda:

- Suy sulolasining tashkil topishi**
- Suy sulolasining ichki va tashqi siyosati**
- Suy sulolasasi madaniyati**

Kalit so‘zlar: Yan Szyan, Yan Guan, ilg‘or yer, “Buyuk kanal”, “samoviy yer”, gun tyan

Suy sulolasasi (xitoy tilida 隋朝 sui chao - miloddan avvalgi 581-618 yillar), faqat ikkita hukmron imperator hukmronlik qilgan qisqa davr bo‘lgan, ammo u Shimoliy va Janubiy sulolalar bo‘linishidan keyin 581-yilda Xitoyni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Ulkan mamlakatning nisbatan tez birlashishida quyidagi omillar asosiy o‘rin egalladi:

- 1) Xitoyning madaniy, iqtisodiy va itimoiy-siyosiy manfaatlari ichki urushlarni to‘xtatish va tarqoq podshohliklarni yagona imperiyaga birlashtirishni talab qildi;
- 2) Kichik va kuchsiz podshohliklar Xitoyning qishloq xo‘jaligi mintaqalarining ulkan quruqlik chegaralarini ko‘chmanchi qo‘snilarning bosqinlaridan himoya qilishga ojizlik qildi.

Uzoq davom etgan og‘ir urushlar qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdosotiqliga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, ulkan sug‘orish tizimidan foydalanishni qiyinlashtirdi. Favqulorra daryolar toshqinlari va halokatli qurg‘oqchilik oqibatlarini bartaraf etish zarurati mablag‘ va ishchilarini birlashtirishni talab qildi. Bu alohida hukmdorlarning imkoniyatidan tashqarida edi. Xitoyning parchalanishi, kuchli va mustahkam davlatning mavjud emasligi mamlakatda ijtimoiy hayotni qiyinlashtirdi. Shu bilan birga, uning birlashishida azaldan Janub va Shimol o‘rtasida mavjud bo‘lgan madaniy aloqalar yordam berdi.

Yangi sulolaning tashkil topishi Xitoy tarixida tub burilish yasadi. To‘rt asrlik bo‘linish, tarqoqlik, qarama-qarshilik davri o‘rniga birlik va markazlashuv davri keldi. Fuqarolik nizolarining tugashi mamlakatda kuchli iqtisodiy va madaniy

ko‘tarilishni keltirib chiqardi. Ekin maydonlari kengaytirildi, aholi soni oshib bordi. Janubda ham, shimolda ham yangi shaharlar - chegara qal’asi shaharlari, yirik daryolarda va xom ashyo qazib olinadigan joylarda savdo yoki hunarmandchilik markazlari, dengiz portlari paydo bo‘la boshladi va poytaxtlar yangidan tiklandi. Hunarmandlar bitta ko‘chaga joylashdilar. Bozorlarda savdogarlar do‘konlari bir-biriga shakl berib, qatorlarni tashkil qildilar. VI asrda ularning asosida tuan va xan deb nomlangan savdo-hunarmandchilik uyushmalari tuzildi. Hukmdor Yan Szyan Konfutsiylik ta’limotiga muvofiq mamlakatda munosabatlarni, barqarorlik va farovonlikni tartibga solishni ilgari surdi. Yangi hokimiyat soliqlarni pasaytirdi, xazinadagi tuz va vino monopoliyalarini bekor qildi. Yangi tanga zarb qilindi. Suy hukumati Xan modelidagi byurokratik tizimdan na’muna oldi, ma’muriy bo‘linish takomillashtirildi va davlat xizmatchilari soni sezilarli darajada qisqartirildi.

Yan Szyan qat’iyat bilan markazning qudratini kuchaytirishga intildi va mahalliy zodagonlarga qarshi shafqatsizlarcha kurash olib bordi. Ammo 604-yilda u taxtga chiqqan o‘g‘li Yan Guan tomonidan o‘ldirilgan. Yan Guan (Yan-di) siyosatining asosini xazinani boyitishga, iqtisodiy va siyosiy markazlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tashkil etdi.

Yan Guan jinshi ya’ni “ilg‘or yer” tizimini joriy qildi, keyinchalik bu xizmatga ko‘tarilishda muhim asosga aylandi va shu bilan mamlakatda gumanitar, fuqarolik tamoyilining ustuvorligini ta’kidladi. Harbiylarga kelsak, ular viloyat fuqarolik hokimiyatiga bo‘ysunadigan soliq solinadigan odamlar toifasiga o‘tkazildi. Markaz va atroflar o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish uchun Huanhe va Yanszi daryolari vodiylarini birlashtirgan suv yo‘li qurildi. Eski va yangi kanallar, daryolar va ko‘llar asosida yaratilgan Buyuk kanal ko‘plab imkoniyatlarni ochib berdi.

Janubdan shimolga oqib o‘tgan ichki suv yo‘li savdo-sotiqni rivojlantirishga, poytaxt va viloyat o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga va mahsulotni janubdan - mamlakatning guruch omboriga yetkazib berishning muntazamligiga hissa qo‘shdi. Bundan tashqari, bu qo‘shinlarni o‘tkazish zarurati tug‘ilganda katta ahamiyat kasb etdi.

O‘sha davrdagi yana bir muhim voqeа 607-608-yillarda Buyuk devorni

mustahkamlash va qayta ta'mirlash edi. Davlat binolari qurilishi, dvoryanlar va sud harajatlarining ko'payishi tobora ko'proq mablag' talab qilar edi. Va hokimiyat aholini qayta hisob-kitob qildi, soliqqa tortish va xizmat ko'rsatish shartlarini oshirdi.

Kema quruvchilar, don tashuvchilar, majburiy ishchilar og'ir sharoitlarda yashashgan. O'zining ulug'vorligi, imperatorlik saroyining dabdabasini ta'minlaydigan katta harajatlari bilan hayratga solgan ulkan qurilishlarning barchasi hokimiyat tomonidan an'anaviy vositalardan foydalanganligi tufayli amalga oshdi. Bu allaqachon sodir bo'lganidek Xitoy tarixida bir necha marotaba ko'tarilayotgan yosh sulolalarning asosiy maqasadi "tub aholini" qayta tiklash, asosiy mashg'ulot bo'lgan qishloq xo'jaligi va davlatchilik an'alarining boshqa barcha tarmoqlarini barpo etish edi.

VII asr boshlarida uzoq urushlar va fuqarolararo nizolar ko'plab hududlarning vayron bo'lishiga, dalalarning xarob bo'lishiga va odamlarning katta talofatlariga olib keldi. Yan Szyan boshlagan urushlar paytida ilgari amaldorlarga tegishli bo'lgan ko'plab yerlar davlat tasarrufiga o'tdi va ajratish tizimi butun imperiyada tarqaldi. Mojarolarning tugashi tashlandiq va toza yerkarni yetishtirishga, sug'orish tizimini keng miqyosda tiklashga yordam berdi.

Mamlakatda yagona hukumatning tashkil etilishi aholini ro'yxatdan o'tkazishni soddallashtirishga imkon berdi. Yan Szyan davrida hokimiyat ilgari soliq ro'yxatiga kiritilmagan 1,5 milliondan ortiq dehqonlarni aniqladi, yer ajratish hajmini rasman qisqartirdi, shu bilan birga ikkidan ortiq soliq to'rtdan uch o'lponga ko'tarildi va majburiy mehnat yiliga 30 kunga yetdi. Birinchi marta qullarga erkin dehqonga beriladigan bir xil ulush berildi. Shu bilan birga, qullar egalariga bir necha talablar qo'yildi: ularning ajratmalaridan olinadigan soliq yarim baravar ko'p edi. Dehqonlardan yig'ilgan soliqning ko'p qismi xazinaga, kichik qismi esa mahalliy omborlarga tushgan.

Yan Guan davrida mehnat xizmatlari yanada oshdi. Manbalarda Loyan qurilishida 2 million kishi, Buyuk kanal va Buyuk devor qurilishida 1 million kishi qatnashganligi ko'rsatilgan.

Suy imperiyasida ajratish tizimi doirasida “rasmiy yerlar (gun tyan)” tiklandi, ulardagι daromad mansabdorlarni boqishga sarflandi. Bundan tashqari, “van” unvoniga ega bo‘lgan imperatorlik oilasi a’zolariga davlat fondidan 10 ming mugacha bo‘lgan yerlar ajratilgan. Yan Guan zodagonlar safini to‘qqizdan uchtagacha qisqartirgan va shu bilan ushbu mulklarni cheklashga intilgan.

Suy sulolasi misolida sulola va umuman davlatning ko‘tarilish va pasayish yo‘nalishlarining klassik dinamikasi aniq ko‘rsatilgan: birinchi navbatda, imperator hokimiyatining mustahkamlanishi, madaniy yuksalish, asosiy ishlab chiqaruvchilarga imtiyozlar, keyin esa - tajovuzkor tashqi siyosatning kuchayishi, soliqlarning o‘sishi, katta yer egaligi va nihoyat mamlakatning halokatga yuz tutishi;

Xitoylarning shimoli-sharqdagi harakatlari Lyaonin va Sariq dengizdagi dengiz yo‘llarini bosib olishga qaratilgan edi. Shunday qilib, Koguryo va Pekche shtatlari (Koreya yarim orolining shimoliy va janubi-g‘arbiy qismlarida) Suy imperiyasining agressiv siyosatining obyektiga aylandi. Silla (yarim orolning janubi-sharqida) Suy imperiyasining ittifoqchisi bo‘lgan. 612-614 yillardagi qattiq urushda xitoyliklar Koreyaga uch marta muvaffaqiyatsiz urush qildilar. Harbiy yurishlarning og‘irligi va ayniqsa Koreyadagi urushlarning muvaffaqiyatsizligi hukmron sulolaga qarshi keng xalq qo‘zg‘olonga turtki bo‘ldi. Shandun va Xenandagi qo‘zg‘olonlar, ayniqsa, kuchli edi, u yerga Yan Guan harbiy yurishlar, qochqin jangchilar va aravachilar bilan bordi. Aynan o‘sha yerda 610-yilda isyonchilar mustaqil qirollikni tashkil qilib, uning boshlig‘i Dou Szanden, sobiq qishloq xo‘jayini va jangchi deb e’lon qilishgan. Shu bilan birga, hukumatda nizolar boshlandi. Vujudga kelgan chalkashliklarda eng kuchlisi Yan Guanning ayol qarindoshi Li Yuan edi. 617-yilda Tayyuanda u g‘alayon ko‘tarib, tez orada ittifoqdosh turkiy qabilalarining otliq qo‘shinlari tomonidan kuchaytirilgan qo‘shin bilan Chan’anni qo‘lga kiritdi. Koreyadagi urush muvaffaqiyatsiz tugaganidan so‘ng, Yan Guan isyonchilardan qochish uchun janubga qochib ketdi. 618-yilda Szyandu shahrida u saroy qo‘riqchilari tomonidan o‘ldirilgan va Li Yuan Tan sulolasi tashkil etilganligini e’lon qilgan.

Ichki siyosat. Mamlakatning harbiy birlashishi bir qator ma'muriy va iqtisodiy choralar bilan ta'minlandi. Ular orasida markaziy va mahalliy hokimiyatlarning almashinishi alohida o'rin egallagan bo'lsa, qadimgi Xan siyosiy institutlaridan ko'p narsa olingan. Yan Szyan tomonidan yaratilgan imperiya boshqaruvi tizimi asosan butun o'rta asrlarda saqlanib qolgan.

Davlat apparatining boshida imператор – “osmon o‘g‘li”, oliv qonun chiqaruvchi, sud, ijro etuvchi va harbiy hokimiyatga ega bo‘lgan cheksiz hukmdor turardi. Uning huzurida - oliv davlat organlari bo‘lib, ularning rahbarlari mamlakat ishlarini birgalikda boshqargan.

583-yilda Yan Szyan davlatning ma'muriy bo‘linishi va joylarda byurokratiya tuzilmasi islohotini amalga oshirdi, bu esa boshqaruvda markazlashtirish tamoyillarini mustahkamlash imkonini berdi. Harbiy tashkilot o‘zgartirildi - armiya qo‘mondonligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri imператорга o‘tdi, katta saroy qo‘riqchisi tuzildi, “tumanlar qo‘shinlari” soni sezilarli darajada oshdi. 581-yildan boshlab, oldingi sulolalarning keng qamrovli huquqiy materiallari tizimlashtirildi va keyingi barcha uchun asos bo‘lgan to‘plam yaratildi.

Mamlakat birligi yerga egalik tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Janubda umumxitoy hukmronligi tiklanishi bilan yerga egalik ustidan davlat suvereniteti o‘rnatildi va shu tariqa VI asr oxiridan boshlab tarqatish tizimi keng joriy etildi. Bu esa deyarli hamma joyda tarqaldi.

Suy hukumati o‘z mavqeyini barqarorlashtirish uchun avvalo aholiga ma’lum imtiyozlar berdi. Joylarda soliqlar kamaytirildi, soliq qarzlari olib tashlandi. Saroyda ish vaqtı yiliga 30 kundan 12-20 kungacha qisqartirildi va asosan 21 yoshdan 50 yoshgacha va undan oldin 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan shaxslar xizmat qildi. Qishloq xo‘jaligining tiklanishi va yuksalishi – dala ekinlarini rivojlantirish, texnik ekinlar tut, kanop yetishtirish, sug‘orish

tarmoqlarini kengaytirish qo'llab-quvvatlandi. VI asr oxiri – VII asr boshlarida Xitoyning eng yirik daryolari Huanhe daryosi va Yanszi daryolarini bog'laydigan 1000 km uzunlikdagi "Buyuk kanal" ning eski uchastkalari tiklandi, yangi uchastkalari qurildi. Bu sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish, g'alla va boshqa yuklarni tashish, qo'shinlar va harbiy texnikalarni tashishni osonlashtirish imkonini berdi. Loyanning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati ortib, markaz va viloyatlar o'rtasidagi ma'muriy aloqalar mustahkamlandi.

Boshqaruvning markazlashuvining kuchayishi munosabati bilan, Suy saroyi va zodagonlar o'zlarini "Samoviy imperiya" ning mutlaq hukmdorlaridek his qildilar. Yan Guan davrida boshlangan ommaviy qurilish imperiyadan katta sa'y-harakatlarni talab qildi. Loyanni himoya qilish uchun kuchli mudofaa istehkomlarini qurish, Buyuk devorning yangi qismlarini qurish va poytaxtni kengaytirish va h.k. Har oyda Loyanda qurilish ishlari 2 million kishigacha xizmat qilgan. Yan Guan har yili Loyanda "varvarlar" – qo'shni mamlakatlar va qabilalarning elchilari sharafiga ba'zan butun bir oy davom etadigan ajoyib bayramlar o'tkazardi. Yan Guan davrida feodal elitaning keng tarqalgan isrofgarchiligi va mashaqqatli urushlar tufayli soliqlar keskin ko'paydi. Qurilish ishlarida u ko'pincha deyarli cheksiz bo'lib qoldi. Qo'shinlar uchun oziq-ovqat va jihozlarni tashish uchun ko'plab odamlar armiyaga safarbar qilindi. Davlatning ichki resurslari tugadi.

Suy davri madaniyati.

Buyuk Xitoy devori kengaytirildi. Xitoy san'ati va hunarmandchiligi shu jumladan, xitoy kulolchiligi (Xitoy chinni va lakdan yasalgan buyumlar) hamda nefrit o'ymakorligi ushbu me'moriy yuksalishdan katta foyda oldi va xitoylik rassomlar Suy saroyiga to'planishdi. Suy davrida buddizm Xitoyda mustahkam

o‘rnatildi va imператор Yan Szyan o‘z hukmronligini qonuniylashtirish uchun buddizmni qabul qildi.

Aytish mumkinki, buddizm dini qisqa muddatli Suy sulolasiga davrida Xitoyda tasviriy san’atni birlashtirishga yordam bergen va keyingi Tan davrida uning tiklanishiga yo‘l ochgan umumiy madaniy kuch sifatida harakat qildi. Buddizm turli xil san’at turlariga, ayniqsa haykaltaroshlikka ta’sir qildi. Buddizm dinigacha Xitoy haykaltaroshligi kichik san’at turi edi.

Buddizm tarafdarlarining tosh haykaltaroshligi haykallar shaklida ham, turli xil relyefli haykaltaroshlik turlarida ham keng tarqalgan. Bronza haykaltaroshlik fil suyagi o‘ymakorligi kabi buddizm dinini tasvirlash uchun ham ishlatilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Suy davlatining tashkil topishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
2. Suy davlatining ichki siyosati o‘ziga xosligi nimalardan iborat?
3. Yan Szyan qanday islohotlarni amalga oshirdi?
4. Suy davlati madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ayting
5. Suy davlati madaniyatida buddizm dining o‘rni haqida ayting

9-mavzu. Tan sulolasi. Tan imperiyasining tashqi siyosati

9-mavzuda:

-Tan sulolasining tashkil topishi

-Tan sulolasining ichki va tashqi siyosati

-Tan sulolasi madaniyati

Tan sulolasi davrida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayyoohlar

Kalit so‘zlar: Gaozu, “Szyu Tan shu”, “Sin Tan shu”, “Sin szyu Tan shu hechao”,

Tan sulolasi 618-yildan 907-yilgacha hukmronlik qilgan Xitoyning imperatorlik sulolasi hisoblanadi. Tan sulolasining asoschisi- Li Yuan (李淵) ya’ni Gaozu (高祖, Gāozǔ) 618 –626 yillarda hukmronlik qilgan. Ushbu sulola tarixi haqidagi ma’lumotlar 940-945 yillarda yozilgan “Tan sulolasining eski tarixi” (“Szyu Tan shu”) asarida keltiriladi.

Ouyan Syu (1007-1072 yillar) va Sun Si (998-1061-yillar) 960-1279 yillar hukmronlik qilgan Sun sulolasi tarixchilari 1043-1060 yillarda shu sulolaning yangi tarixi “Sin Tan shu” (“Tan sulolasining yangi tarixi”) ni yozganlar.

XVIII asrda tarixchi Shen Bin –chjen har ikkala tarixiy asrlarni bir – biriga bog‘lab, unga “Tan sulolasining bir – biri bilan qo‘shilgan yangi hamda eski tarixi” (“Sin szyu Tan shu hechao”) deb nom qo‘ydi. Asarda 618-907 yillar voqealari bayon etilgan.

Tan sulolasi davriga kelib, markaziy hokimiyat boshqaruvi an’anaviy Xitoy boshqaruv tizimi asosida shakllanib bo‘lgan edi. Faqatgina undagi ba’zi bir tizimlarga ishlovlar berish, isloh qilish bilan ularni rivojlantirish mumkin edi. Tan sulolasida mamlakat bosharuv tizimi 3 palataga bo‘linib boshqarilardi:

- Vazirlar mahkamasi;
- Saroy maslahat kengashi;
- Davlat apparati;

Vazirlar mahkamasining boshqaruv organlari oltita an’anaviy vazifa orqali ish yuritar edi. Ularning asosiy vazifalari bu elchilarni qabul qilish, ta’lim ishlarini boshqarish, an’analarni tartibga solish,kabilardan iborat edi. Qolgan beshta vazifa

quyidagilardan tashkil topgan edi:

- amaldorlarni tayinlash, ularni ishdan bo'shatish va taqdirlash;
- moliyaviy hisob-kitob ishlarini boshqarish, soliqni nazorat qilish;
- harbiy soha vakillari bilan ishlash, armiyani nazorat qilish, chegarani qo'riqlash;
- sud tizimini, qamoqxonalarni nazorat qilish, jinoyatchilar ustida ishlash;
- qurilish ishlari, ko'chalarni ta'mirlash va suv xo'jaligi ishlarini tartibga solish kabi umumiy ishlar bilan shug'ullanish.

Tan imperiyasi boshqaruvi davrida Xitoydagi barcha yerlar davlatniki deb e'lon qilindi. Mamlakatning barcha hududlarida dehqonlarga kichik-kichik yer maydonlari ijara berildi. 624-yili qabul qilingan qonunga ko'ra, dehqon o'z hovlisi va tomorqasini sotishi, garovga qo'yishi mumkin edi. Ammo davlat tomonidan ajratilgan yerni sotish ta'qiqlangan.

Tan davridagi yana bir muhim yangiliklardan biri, ayollarni yer olish huquqidan chetlatish bo'ldi. Lekin, beva ayollar bundan mustasno edi. Shu bilan birgalikda qonun qullarga ham yer olish huquqini berdi. Qullar asosan to'liq yoki yarim o'lchamdagи yerga ega bo'lishdi. Shu bilan ular dehqonlarga aylantirildi. Biroq, bular xususiy qullarga tegishli emas edi. Xitoya VI asrdanoq shaharlar birmuncha yuksaladi. Chegara hududlarida yangi shahar-qal'alar bunyod etila boshlaydi. Dengiz va daryo portlarida, xomashyo serob joylarda, savdo-hunarmandchilik yuksalib, yangi shaharlar vujudga keladi. Buyuk kanal hamda dengiz sohillari bo'ylab, VII asrdan Xanchjou, Kayfin, Yanchjou shaharlarining yuksalishi ham savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan bog'liq edi. Ushbu jarayon qonunlarni kuchaytirishni taqozo etdi. Tan sulolasi hukmdorlari shaharlarda kechasi ko'chaga chiqishni ta'qiqlaydi. Shahar darvozalari kechasi yopib qo'yilgan.

VII-VIII asrlarda Xitoya tog'-konchilik sohasi, chinni va sopol buyumlar ishlab chiqarish ham yuksaldi. Ayni paytdan shahar hunarmandlari kasb uyushmalari tuzib, ma'lum kasbdagi hunarmandlar alohida ko'cha va mavzelarda joylasha boshlagan. Xitoyning markazlashuvi ya iqtisodiy taraqqiyot savdo-

sotiqning ham yuksalishini ta'minlaydi. Eng yirik bozor Yanchjouda bo'lib, bu shahar suv va quruqlik savdo yo'llari kesishgan joyda joylashgan edi. Ushbu davrda vujudga kelgan yarmarkalar ham ichki savdoning kengayishiga xizmat qilgan. Xitoyda VII asrdan yagona pul - syanning joriy etilishi ham iqtisodiy yuksalishga xizmat qiladi.

Tan sulolasasi hukmronligi davrida Xitoy Turk xoqonligiga qarshi katta urushlar olib boradi. Imperator qo'shinlari 640-yili Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Gaochan davlatini mag'lub etadi. Shundan so'ng, uyg'urlarga qarshi uzoq yillar davom etgan urushlar boshlandi. G'arbiy Turk xoqonligiga qarshi 657-679-yillardagi urushlar ham Xitoy qo'shinlari g'alabasi bilan tugaydi. Koreyaga qarshi 668-yili boshlangan urush, uning poytaxti Pxenyanning olinishi bilan yakunlandi. Xitoy VII-VIII asrlarda faol tashqi siyosat olib borib, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Vizantiya, Yaponiya va Hindiston bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Xitoy me'morlari toshdan, yog'ochdan, marmar va temirdan foydalaniб ajoyib saroylar, ibodatxonalar, minoralar va ko'priklar qurishdi. Xitoy rassomlari ipak, qog'oz, yog'och va toshda o'zlarining ajoyib san'at asarlarini yaratganlar. Rassomchilikning devoriy rasmlar chizish sohasi ayniqsa rivoj topadi.

Tan davri hukmdorlari mamlakatning huquqiy tizimiga ham alohida e'tibor qaratdi. 737- yilga kelib, Xitoy huquqiy me'yorlarini o'zida aks ettiruvchi "Tay lyuy shu" kodeksi nashr etildi. Ushbu kodeks uzoq yillar davomida nafaqat Xitoyning huquqiy ishlarida asos va shu bilan birga Uzoq Sharq mamlakatlari uchun ham namuna bo'lib xizmat qildi. Bu kodeksning asosini Konfutsiuning falsafiy va siyosiy qarashlari tashkil etib, imperator manfaatlarini himoya qiladi.

Tan sulolasasi davrida yashagan Lu Yuy tomonidan maxsus choyga bag'ishlangan "Cha szin" ya'ni "Choy qonuni" asarida yozilishicha, "choy" so'zini yozish uchun ishlatilib kelinayotgan "cha" ieroglifi o't-hashak va yog'ochni bildiruvchi ikki ieroglyphning birlashtirish asosida 713-741 yillari yuzaga kelgan. Undan oldin choy "tu" deb o'qiladigan ieroglif bilan ifodalangan. "Tan sulolasining eski tarixi" ("Szyu Tan shu") ning 73 bobida yozilishicha, choy

o'stirish oddiy dehqonning hayot manbaiga aylanib qoldi, deb ko'rsatilgan.⁵

VII-VIII asrlarda ko'k chinnisozlik (chingsi) san'ati nihoyatda yuksaladi. Ushbu san'at bir qancha turlarga va maktablarga bo'lindi. Tan davrida ko'k chinni idishlar Buyuk Ipak yo'li va dengiz yo'llari orqali xorijga, jumladan Markaziy Osiyo davlatlariga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Tan sulolasи boshqaruvi davrida daraxtlarga o'yib naqsh bezash ixtiro qilindi. Gansu provensiyasining Dunxuan g'oridan Tan davriga oid budda kitoblari topilgan. Shuningdek, kitob chop etish ixtiro qilinishi madaniyatning yanada rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Matematika va astronomiya sohalarida ham siljish ancha sezilarli darajada edi. Mashhur astronomik va matematik olim "Linde li" taqvimini ishlab chiqdi.

Me'morchilik sohasining rivojlanishiga yangi din, buddizmning yoyilishi katta ta'sir qildi. VII asrning oxiri VIII asr boshlarida Xitoyda Buddizm ta'limoti keng quloch yoydi. Ko'p qavatli ibodatxonalar, budda haykallari, g'ordagi buddizm ibodatxonalari fikrimiz dalilidir. Me'morchilikda "jiang" shaklidagi toshdan qurilgan imoratlarning atrofi chor-ayvon bilan o'ralgan. "Lou" deb nomlangan ko'p qavatli binolar qurilgan. Shaharlarni o'ragan mudofaa devorlar darvozalarning ustidan maxsus ko'p qavatlik burjlar qurilgan. Inshootlarning tomlari asosan yog'ochdan qurilgan. Shaharlar ahamiyati Tan imperiyasida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta asrlar ipak va qog'ozga tush bilan yozishning asrlar bo'yi mukammallahib kelgan xitoycha uslubi Tan sulolasи hukmronligi davrida ravnaq topgan. Rassomlar uzun ipak yoki qog'oz o'ramlarga chizishgan. Ularning asarlaridagi sevimli mavzu tabiat manzarasi bo'lgan. Shuningdek, tabiat manzarasidan tashqari hayvonlar va qushlarni chizish keng tarqalgan. Bunday sur'atlar uy devorlarini bezab turgan.

VII asrda imperator saroyida o'ziga xos Xanlin akademiyasi vujudga keldi. U ko'zga ko'ringan olimlardan tashkil topgan edi. Qadimgi asarlar qaytadan

⁵ A. Xo'jayev. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007. 186- b.

ko‘chirilib izoh berildi. Kutubxonalar paydo bo‘ldi. Tan davrida o‘yilgan taxtalardan kitob bosila boshlandi. Bu davrda bir qancha sulolarning tarixlari rasmiy ravishda tuzilgan edi.

Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan xitoylik sayyoohlari.

Qadimdan Markaziy Osiyoga Buyuk Ipak yo‘li orqali ko‘plab sayyoohlari hamda budda rohiblari tashrif buyurgan bo‘lib, o‘zlarining xotiralarida va sayohatnomalarida yurtimiz tarixiga oid ko‘plab ma’lumotlarni yozib qoldirganligini guvohi bo‘lamiz. Fasyan (337–422), Shyuanzang (602–664), Vukung (730-790), Du Xuan kabi xitoy sayyoohlari Hindistonga Buyuk Ipak yo‘li orqali borganliklari va Markaziy Osiyoga tashrif buyurganliklari ma’lum.


Fasyan “Buddizm mamlakatlari xotirasi” asarida Buyuk Ipak yo‘li haqidagi qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Ushbu asarida Markaziy Osiyo va Hindistondagi 30 ga yaqin davlatlarga oid qisqacha ammo, ijobiy fikr mulohazalarni yozadi.

Buyuk Ipak yo‘li orqali yurgan yana bir budda rohibi Vu Kung ham borgan joylarining ijtimoiy, madaniy hamda etnik vaziyati haqida Tan sulolasini hukmdoriga so‘zlab beradi.

Shyuan Zang Buyuk Ipak yo‘li orqali Turk xoqonligiga qarashli hududga keladi. Bu yerdan Issiqko‘lga, keyin VI-VIII asrlarda Buyuk Ipak yo‘lidagi yirik va mashxur Suye shahriga yetib boradi. Bu yerda Turk xoqonini ovga chiqqanligini ko‘radi. Shyuan Zang “Buyuk Tan sayohatnomasi” asarida ko‘rganbilganlarini qayd etib boradi. Shuningdek, Xitoy tashqi siyosatida G‘arbiy mamlakatlarga qiziqishining yana bir sababi bu buddizm o‘chog‘i bo‘lgan Hindistonga aynan g‘arb orqali borish edi. Mazkur sabablar tufayli G‘arbiy mamlakatlarga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi. Xitoyda buddizm ibodatxonalarining rivojlanishi uchun ma’lum sharoitlar ya’ni budda rohiblarining keng qatlami va ularning jonkuyarligi talab qilinardi. Buddizmga oid matnlarga bo‘lgan extiyojni ortishi esa g‘arbiy o‘lkalar orqali Xindistonga borishni yanada tezlashtirdi.

Xitoy sayyoohlariidan Shyuan Zang, Vu Kung Buyuk Ipak yo‘li orqali Hindistonga borishadi va yo‘l davomidagi xotiralarini yozib qoldirishadi. Bu

borada Yevropa, rus va o‘zbek adabiyotlaridagi ko‘plab tarjimalarda alohida qaydlar mavjud. Xususan, o‘zbek olimlaridan professor Ablat Xodjayev “Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar” kitobida, professor N.E.Karimova “Buddiyskie palomniki na Velikom shelkovom puti” nomli maqolasida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan Xitoy sayyoohlari haqida ma’lumotlar keltiradi. Amerikada Selli Hovey Vriggins “Shyuan Zang bilan Buyuk Ipak Yo‘li bo‘ylab sayohat”, Rossiyada Aleksandrova Natalya Vladimirovna “Buyuk Tan sulolasi davrida G‘arbiy mamlakatlari haqidagi xotiralar” nomli kitoblarida rohib Shyuan Zang haqida yoritib beradi. Xitoy tilidagi “Da Tan si yuy szi” kitobi esa bu mavzuni o‘rganishimizda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Quyidagi xarita Shyuan Zangning safar yo‘nalishi bo‘lib, vatanidan Hindistongacha borgan hududlarini aks ettiradi.



Путешествие Сюань-цзана (чз. I—IV и XII)

Shyuan Zang Qozog‘iston hududi Turkiston viloyatidagi Mingbuloq qishlog‘idan o‘tib, Turk xoqoni bu yerga jaziramadan saqlanish uchun kelishini yozadi. Xitoy sayyohi Issiqko‘lni ko‘k havorang rangda ekanligini, to‘lqinlarning qirg‘oqlarga urilib turishini, suv ostida baliqlarning ko‘pligini ta’riflaydi. Shundan so‘ng, Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo hududlarida bo‘ladi. Bu yerdan Afg‘oniston orqali Hindistonga yo‘l oladi. Hindistonga borib, buddizm dinini chuqur o‘rganadi. Vataniga qaytib kelgach, hukmdorga Markaziy

Osiyodagi ijtimoiy-iqisodiy vaziyat va joylashuv o‘rni haqida so‘zlab beradi. Bu esa Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagilarni xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinlidir:

Birinchidan, Shyuan Zang yo‘l davomida ko‘rgan kechirganlarini o‘z esdaliklarida yozib qoldiradi. Bu esa bizga Markaziy Osiyo davlatlarining ilk o‘rtasrlardagi tarixini ya’ni turmush tarzi, dini va urf-odatlarini o‘rganishimizda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi;


Ikkinchidan, Buyuk Tan sulolasи hukmronligi davrida Markaziy Osiyo va Xitoyning o‘zaro ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy munosabatlarini har ikkala mamlakat uchun ahamiyatini xitoy, ingliz va rus manbalari orqali tahlil qilish va o‘rganish juda muhimdir;

Uchinchidan, Markaziy Osiyo hududi va shaharlarining geografik joylashuvi to‘g‘risida tarixiy malumotlarni yanada ko‘proq egallashamiz tarix rivoji uchun maqsadga muvofiqdir;

To‘rtinchidan, Xitoy budda rohibining Markaziy Osiyo haqidagi fikr – mulohazalarini o‘rganish muhim masalalardan hisoblanadi.

Sayyoh va rohib Shyuan Zangning sayohati davomidagi yozgan xotiralari yurtimizning o‘tmishdagi holatini o‘rganishimizda beminnat xizmat qiladi, desak aslo yanglishmaymiz.

Du Xuan 762-763 yillarda yozgan “Du Xuanning borgan joylari xotirasi” asarida 12 yil davomida Turkistonning ko‘plab hududlarida ko‘rgan-kechirganlarini bayon qiladi.



Shuningdek, Du Xuanning bu asari Xitoyning Tan sulolasiga (618-907 yillar) va Turk Xoqonligi o‘rtasidagi Buyuk Ipak yo‘li ustidan nazorat qilish huquqini qo‘lga kiritish uchun bo‘lgan kurash, Talas daryosi bo‘yida sodir bo‘lgan jang haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Bu jangda asir olingan ko‘plab hunarmand va rassomlar Samarqandga olib ketilgan degan ma’lumotlar uchraydi. Du Xuan ularni Samarqandda qog‘oz ishlab chiqrishni yo‘lga qoyganliklarini va do‘konlar ochganligini qayd etadi.

Mazkur manbalar bizga tarixni o‘rganishimizda, geografik tadqiqotlar qilishda muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tan sulolasiga qaysi manbalar orqali o‘rganiladi?
2. Tan sulolasiga boshqaruvida vazirliklarning vazifalarini nimalardan iborat edi?
3. Tan sulolasiga qaysi sohalar rivojlangan?
4. Tan sulolasiga va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi munosabatlar hamda Buyuk Ipak yo‘li haqida gapiring
5. Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan xitoylik sayyohlardan qanday ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan?

10-mavzu. Sun sulolasi

10-mavzuda:

-Sun sulolasining tashkil topishi

-Sun sulolasining ichki va tashqi siyosati

Kalit so‘zlar: Shimoliy Sun, Janubiy Sun, Van Anshi, jiaozi, “Yangi qonunlar”

Sun sulolasi 960-yildan 1279-yilgacha hukmronlik qilgan davlat hisoblanadi.

Sun sulolasi ikkiga bo‘linadi:

- 1) Shimoliy Sun 960-1127 yillar;
- 2) Janubiy Sun 1127-1279 yillar.

960-yilda Kayfin shahrida hozirgi Xenan viloyati hududida joylashgan Shimoliy Sun sulolasi tashkil etilgan. 1127-yilda Szin sulolasi tomonidan vayron qilingan. Xuddi shu yili sulola Janubiy Sun sifatida hozirgi Xenan provinsiyasining Shansyu shahrining janubi-g‘arbiy qismida qayta tiklandi. Keyinchalik Lin'an (hozirgi Chjeszyan viloyati Xanchjou) Janubiy Sunning poytaxtiga aylandi. Sun sulolasiga 1279-yilda mo‘g‘ullar tomonidan barham beriladi. Savdo va hunarmandchilikning jadal rivojlanishi, Janubiy Osiyodan guruchning yangi navlarini joriy etish aholi faol o‘sishiga ta’sir qildi. Sun davrining boshida 60 million kishidan Sun davrining ikkinchi yarmiga kelib 100 milliongacha ko‘paydi.

Davlat soliqlarni to‘lash sharti bilan yangi hududlarga merosxo‘r yer egalik qilish huquqini berib, yangi yerlarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirdi. Van Anshi islohotlari doirasida 1069-yilda qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, sug‘orishga alohida e’tibor berildi. Van Anshi islohotlari Sun iqtisodiyoti tarixidagi alohida sahifa bo‘lib, u soliq tizimini isloh qilishga harakat qildi. Shuningdek, davlat tomonidan qattiq davlat nazorati o‘rnatildi. Tabiiy o‘g‘itlar, yangi janubiy guruch navlari va ekinlaridan faol foydalanishni o‘z ichiga olgan barcha yangiliklar tufayli hosil uch baravar oshdi. Van Anshi (milodiy 1021-1086) - hukumat islohotchisi, faylasuf va Sun sulolasida taniqli yozuvchi bo‘lib tanilgan edi. Uning “Yangi qonunlar” deb nomlangan misli ko‘rilmagan keng ko‘lamli islohotlari Xitoy tarixida shu kungacha mashhur shaxsga aylantirdi. Van Anshining

adabiy islohotlarni targ‘ib qilishdagi faol ishtiroki, ajoyib nasr va she’riyatdagi o‘rni tufayli adabiy hamkasblari uning idealistik siyosiy islohotlariga qarshi bo‘lishdi. Biroq qarshiliklarga qaramay, uni “Tan va Sun sulolalarining sakkiz buyuk muallifi” sifatida hurmatga sazovor qildi.

1069-yilda Van Anshi birinchi vazir (szay syan) etib tayinlandi. 1069-1076 yillarda xazina daromadlarini ko‘paytirish, xususiy mulkdorlar manfaatlari doirasini cheklash va davlatni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi. Ularda moliyaviy, harbiy, yer, sud va ma’muriy sohalar qamrab olingan edi. Shuningdek, ta’lim tizimidagi islohotlar ham amalga oshirildi. Yuqori martabali amaldorlar o‘rtasidagi islohotlarga qarshi keskin norozilik tufayli u 1074-yilda iste’foga chiqishga majbur bo‘ldi, ammo 1075-yilda u yana szay syan ya’ni birinchi vazir lavozimiga tayinlanadi. Biroq, 1076 yilda Van Anshining bu lavozimdan so‘nggi ketishi islohotchilarining to‘liq mag‘lubiyatini ko‘rsatdi. U umrining so‘nggi yillarini Szyanning chekkasidagi tog‘larda o‘tkazib, o‘zini she’riyatga bag‘ishladi. 1076-1086 yillarda yozilgan asarlari betakror asarlardan biri bo‘lib, xitoy adabiyotining oltin fondiga kiritilgan. Bizgacha yetib kelgan “Linchuan syanshen venszi” (“Linchuanlik o‘qituvchining asarlari to‘plami”) asari imperatorga hisobotlar, maktublar, klassik asarlarga sharhlar va she’rlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Vang Anshi xitoy tarixida mashhur bo‘ldi. Xitoy adabiyotida nasrning buyuk ustasi sifatida Xan Yu (768-824), Lyu Zon-yuan, Ouyan Syu, Su Shi, Su Syun (1009-1066), Su Che va Zen Gon (1019-1083) kabi shaxslar bilan birgalikda “Tan va Sun sulolalarining sakkiz buyuk muallifi” dan biriga aylandi. Asarlari orasida, “Van yan shu” (“O‘n ming so‘zli hisobot”, 1058-yil) nomli imperatorga hisoboti islohotlar dasturining asosini tashkil etdi. Van Anshi tomonidan imperatorga ma’lum masalalar bo‘yicha taqdim etilgan 94 hisoboti (byao) saqlanib qolgan. Van Anshi xitoy adabiyotining “si” janrida 29 ta she’rlar yaratgan. Ularning ichida eng mashhuri “Jinlin huay gu” (“Men Jinlindagi qadimiylig haqida o‘ylayman”) mavzusida “Guyjisyan” (“Dolchin daraxtining xushbo‘yligi”) nomli asarga bag‘ishlangani edi. Van Anshining ijodini ikki bosqichga ajratish mumkin - xizmat davrida yozilgan she’rlari va iste’foga chiqqan

paytida yaratilgan she'rlari. Dastlabki davrda u qadimiy uslubdagi misralarni yoki katta shakldagi qonunlarini yozishni afzal ko'rgan. Viloyatda xizmat qilgan davrlarida yozilgan bir qancha asarlarda xalqqa hamardlik, jamiyat kelajagi uchun qayg'urish ifodalangan. “Xebey Min” (“Xebey xalqi”) asarida u hokimiyat provensiya dehqonlaridan qanday qilib qo'shimcha soliq undirayotgani haqida yozadi. Van Anshining ilk she'rlari yorqin siyosiy xarakterga ega bo'lib, uning siyosatini o'rganish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mashhur davlatga bag'ishlangan “Shan Yan” asarida siyosiy arbob, huquqshunoslik asoschilaridan biri Gunsun Yan (miloddan avvalgi 390-338 yillar Shan Yan) haqida yozib, bu yerda u nafaqat o'z qahramoni shaxsiga ta'zim qiladi, balki uning xalqni boshqarish usullarini ham kuylaydi. Vang Anshi Shang Yanning islohot dasturidagi birinchi navbatda, davlatni boshqarishda qonunning ahamiyati va hatto kichik jinoyatlar uchun ham jazoning og'irligi haqidagi qoidalariga e'tibor qaratadi. Vang Anshining bu davrga katta qiziqishining o'zi shaxslardan dalolat beradi: “Chjan Lyan”, “Sima Syan”, “Kun Szi”, “Sin Shi Huandi” kabi. Umrining so'nggi yillarida shoir o'zining siyosiy hayotini aks ettiruvchi she'rlarni deyarli yaratmaydi. Ularning o'rmini falsafaga oid qarashlar o'z o'rmini beregallaydi. Tabiat bag'rida sokin hayot kechiradi, shi janrida ko'plab kichik she'rlar yozadi. Hayot, ruhiy holat, falsafiy qarashlar Van Anshining dunyoni idrok etishi uning to'rtliklarida (jueju) aks ettirilgan. Masalan, “Jyan shan” (“Daryo bo'yida”) kabi she'rlarini haqli ravishda she'riyatining durdonalari deb atash mumkin. Har doim Van An-Shiga xos bo'lgan tabiatni tasvirlashdagi nozik mahorat yanada nafislik kasb etdi. Hayot va taqdir, yerdagi borliqdagi o'tkinchi va boqiylik haqidagi fikrlar, hayotning o'tkinchiligi haqidagi fikrlari (“Bey bey sin hua” – “Ko'lning shimoliy qirg'og'idagi o'rik gullari”) she'rida ifodalangan. U hayotlik chog'idayoq ulug' shoir sifatida tan olingan shaxslardan biri edi.

Sun davrida mamlakat aholisining ratsionida O'rta Osiyodan keltiriladigan tarvuzlar va Hindistondan keltiriladigan no'xatlar ham mavjud edi. Shuningdek, texnik ekinlarga katta e'tibor berildi: rivojlanib borayotgan choy va ipak qurti bilan bir qatorda paxta yetishtirish keng tarqaldi. Shakarqamish yetishtirish usullari

yaxshilandi. Sun imperiyasi o‘rtalasr darajalar dunyosida eng rivojlangan iqtisodiyotlardan biriga ega edi. Xitoyliklar o‘zlarining mablag‘larini Buyuk Kanal, Yansze bo‘ylab faol tashqi savdo va ichki savdo olib borgan. Shu bilan birga ular o‘zlarining mablag‘laridan bir nechta suzib yuradigan kemalarga sarmoya kiritdilar.

Ushbu davrda davlat xizmatiga mansabdor shaxslarni yollash tizimiga katta e’tibor berildi; bu boshqarish uchun eng qobiliyatli shaxslarni tanlash uchun tanlov imtihonlari natijasida olingan darajalarga asoslangan edi. Buni XI asr boshidagi yillik 30 ming nomzoddan XIII asr oxiriga kelib 400 ming nomzodga ko‘tarilgan past darajadagi imtihonlarga nomzodlar sonidan ko‘rish mumkin. Davlat xizmati va imtihonlar tizimi hukumat tarkibida rasmiy joy olishni istaganlar uchun raqobatni oshirdi.

Sun davlati sudi Tan davriga tegishli huquqiy kodeksning katta qismini saqlab qoldi, bu zamonaviy Xitoygacha an’anaviy xitoy huquqining asosi edi. Sud ishlarini nazorat qiluvchi tinchlik sudlarining rasmiy odil sudyalari nafaqat yozma qonunlarni yaxshi bilishlari, balki jamiyatda axloqni targ‘ib qilishlari ham kutilgan edi.

O‘z navbatida chet elliklar Xitoy iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, ko‘plab G‘arbiy Osiyo va O‘rtalasr Osiyo musulmonlari Xitoyga savdo-sotiq qilish uchun borganlar. Ular import va eksport sanoatining asosiy kuchiga aylanishgan, ba’zilari esa iqtisodiy ishlarni nazorat qiluvchi zabitlar etib tayinlanganlar. Tinch okeanining janubi-g‘arbiy qismi, Hind dunyosi, islom dunyosi va Sharqiy Afrika bilan savdo savdogarlarga katta omad keltirdi. 1085-yilda chiqarilgan mis valyutasining yillik chiqarilishi oshdi. Sun iqtisodiyotidagi eng ko‘zga ko‘ringan yutuq - bu “jiaozi” nomi bilan mashhur bo‘lgan qog‘oz pullarning chiqarilishi edi.

Shimoldan doimiy harbiy tahdid mudofaa kompleksining o‘sishiga va texnologik rivojlanishiga olib keldi. Bu davrda erishilgan yutuqlar qatoriga Kayfinda metallurgiya ishlab chiqarishining kuchayishi va poroxni harbiy usulda qo‘llash kiradi.

Tan imperiyasining harbiy-feodal tuzumidan tubdan farq qiluvchi yangi

iqtisodiy tartib sharoitida Sun imperiyasi xuddi “Kurashayotgan davlatlar” davridagi kabi “yuzta maktab” ning gullab-yashnashi kabi tezkor intellektual yuksalishni boshdan kechirdi. Bosma matbuot paydo bo‘lishi tufayli ilmiy va badiiy adabiyot keng tarqaldi. Mashhur olim Shen Ko faoliyati ham Sun davriga tegishli hisoblanadi.

Shen Ko Van Anshining islohotlari deb nomlanuvchi yangi siyosiy yo‘nalish – Sin Fa (新法) ning asosiy tarafдорларидан бирини тарабиди. Islohotlarning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligini ratsionalizatsiya qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan soliq tizimi bilan ta’minlangan mamlakatning moliyaviy xavfsizligi edi. Ayollar erkaklarnikidan pastroq ijtimoiy darajaga ega bo‘lishlariga qaramay, ular ko‘plab ijtimoiy va huquqiy imtiyozlarga ega edilar va uyda hamda o‘zlarining kichik bizneslarida katta kuchga ega edilar.

Sun davrida Xitoya Tan (618-907) sulolasiga qaraganda ko‘proq budda rohiblar kelgan deb ta’kidlaydi. Savdo yoki doimiy yashash uchun Xitoya sayohat qilgan ko‘plab chet elliklar bilan ko‘plab xorijiy dinlar paydo bo‘ldi. Sun sulolasiga davrida Xitoyning markaziy va janubiy qismida sholi yetishtirishning kengayishi hisobiga Xitoy aholisi ikki baravar ko‘paydi. Asosiy suv yo‘llari bo‘ylab va janubi-sharqiy sohildagi bir qancha shaharlarda 1 milliondan ortiq aholi istiqomat qilgan. Ko‘p sonli san’atga homiylik gullab-yashnadi. Xitoy rasm va xattotlik san’atning eng nufuzli turlari bo‘lgan, ammo nefrit o‘ymakorligi, shuningdek, qora va qizil xitoy lakkasi ham gullab-yashnagan. Shimoliy Sun davri o‘zining rasmlari bilan, Janubiy Sun davri esa o‘zining dekorativ ishlari bilan mashhur. Sun davrida ilm-fan ham rivojlandi, Shimoliy Sun davrida buddizmning yangilanishi natijasida konfutsiylik falsafasi daosizm va buddizm bilan qo‘silib, neokonfutsiylik paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, 1040-yilda qo‘lyozmalar va matnlarni ishlab chiqarish sezilarli darajada osonlashtirildi. Tan davri yog‘och o‘ymakorligi kabi u savodxonlikka va ta’lim imkoniyatlariga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Shimoliy Sun Xitoy madaniyatining eng yaxshi ko‘rinishlaridan birini bo‘lgan peyzaj rasmlari bilan mashhur. Ushbu ko‘zga ko‘ringan landshaft rasmlarida ular hamma narsadan ustun turgan buyuk tog‘ni, hukmdor o‘z fuqarolarini kuzatib turganidek

tasvirlangan. Bu ideallashtirilgan manzara keyingi Sun saroy rassomlari tomonidan o‘zlashtirilib, uni tartibli davlat timsoliga aylantirganlar. Keyinchalik bu saroy rassomlari gavdalantirgan turli badiiy harakatlar akademik san’atning yagona turiga birlashtirilib, garchi g‘arb “naturalizmi”dan farq qilsa ham, jismoniy olamni naturalistik tasvirlash va obyektni to‘g‘ri ko‘rsatishga yaqinlashdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Sun sulolasiga qachon, qanday va kim tomonidan asos solindi?
2. Sun sulolasi ichki siyosatining o‘ziga xosliklari nimadan iborat edi?
3. Van Anshi islohotlari va uning tarixiy ahamiyati qanday edi?
4. Van Anshi ijodi qanday asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab olgan edi?
5. Sun sulolasi madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida gapiring

11-mavzu. Yuan sulolasi. Fan va madaniyat. Yuan sulolasining tashqi siyosati

11-mavzuda:

-Mo‘g‘ullar bosqini va Yuan sulolasining tashkil topishi

-Yuan sulolasining ichki va tashqi siyosati

-Yuan sulolasi madaiyati

Kalit so‘zlar: mo‘g‘ullar, yuan, Munke, Xubilayxon, kehu, dian hu, baojia, fenda, sitian, mingtian, gentian, Arab xalifaligi

Xitoyni mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqich 1210-1215 yillar, ikkinchi bosqich 1234-1252 yillar va uchinchi bosqich 1252-1279 yillar.

Birinchi bosqichda, 1210-yilda Chingizzon Xitoyning harbiy qudratidan hayratlanib, o‘z qo‘sini shijoatli bo‘lishga chaqiradi. Chunki, bu vaqtida Xitoyning ichki siyosiy ahvoli yaxshi emasdi. 1211-yilda mo‘g‘ullar Buyuk Xitoy devori yaqinidagi istehkomga hujum boshlaydi. Shu yil Shimoliy Xitoy devori, hozirgi Shansi viloyatining Sijin okrugi mo‘g‘ullar tomonidan egallanadi. Mo‘g‘ullar qo‘sini Buyuk Xitoy devori ostonasida joylashgan Li hu Lin tog‘ cho‘qqisida jurjenlar armiyasini mag‘lubiyatga uchratadi. 1212-yilda esa g‘arbdan va markazdan poytaxt tomon yo‘l olishadi. Shu yilning kuzida esa, Chingizzon Sijin shahrini ishg‘ol qiladi. 1213-yilga kelib, Chingizzon askarlari Xebey viloyati va Shandunni hamda Lyaodun yarimorolini qo‘lga kiritadi. 1214-yilda Pekin qamal holatga kelib qoladi. 1215-yilda mamlakatda imperator Kayfinga qochganligi sababli qo‘zg‘olon boshlanib ketadi. Chingizzon bu jarayonni nazorat qilish uchun 20 minglik qo‘sini yuboradi va Pekin shahar qo‘mondoni qo‘lga olinadi.

Ikkinci bosqichda, 1234-yil Kayfin shahrini sunliklar qamal qila boshlashadi va to‘liq egallahadi. Natijada, ular mo‘g‘ullar bilan yolg‘iz qoladilar. 1235-yildagi mo‘g‘ullar qurultoyida ularning keyingi bosib oladigan hududi Janubiy Xitoy deb belgilanadi. Bahorda sunliklarga qarshi 20 ming mo‘g‘ul askari

yo‘lga tushadi. Ular Xenanda o‘z mudofaalarini qayta tiklaydilar. Endilikda sunliklar qo‘l ostida bo‘lgan Xebeyga hujum boshlangan edi. 1236-yilda Shensi viloyatining 2 ta okrugi: Manchjou va Danan okrugiga hujum boshlanadi. Va nihoyat Markaziy Xubey va Shensi viloyatlari to‘liq mo‘g‘ullar qo‘liga o‘tadi. 1237-yilda esa Xitoy mo‘g‘ullar bilan tinchlik to‘g‘risida sulk tuzishga harakat qilishadi. 1238-yilning bahorida Xitoy va mo‘g‘ullar o‘rtasida yangi shartnomaga imzolanadi. Bu shartnomaga muvofiq, Xitoy har yili mo‘g‘ullarga kumush va ipak mato berish majburiyatini oladi. 1240-yilda mo‘g‘ul taxtiga bo‘lgan kurash avj oladi. Biroq, Xitoy o‘lpon to‘lashdan chekinmaydi. 1251-yilga kelib, mo‘g‘ullarning yangi xoni Munke Janubiy Xitoya yurish qiladi. Ular endilikda o‘z nigohlarini Yunnan, Sichuanga qaratadilar.

Uchinchi bosqichda, 1252-yil Munke armiyaning boshlig‘i etib Xubilayxonni tayinlaydi. O‘zi esa qo‘shin bilan Sichuanga yo‘l oladi. Janubiy yo‘nalish mo‘g‘ullar uchun eng muhim edi. Shuning uchun, har tomondan egallab olishni boshlashdi. Munkening shaxsiy buyrug‘i bilan mo‘g‘ul qo‘shini Sun davlatiga Sichuan orqali shimoliy-g‘arbdan kirib kela boshladi. Xubilayxon esa o‘z qo‘shini bilan tog‘ridan to‘g‘ri shimol tarafdan Xenan orqali kirib keldi. Biroq, ikki qo‘shin birlashmasidan oldin 1259-yil Munke vafot etadi. Munke armiyasi qaytib ketadi. Xubilay armiyasiga qaytib ketish taklif qilinadi. Biroq, Xubilayxon bosqinchilikni davom ettiradi. Yanszini egallaydi va Xitoy bilan shartnomaga imzolaydi.

Xitoy 1279-yili mo‘g‘ullar tomonidan to‘liq bo‘ysindirilib, yangi mo‘g‘ullar sulolasini “Yuan” davlatiga asos solinadi. Mo‘gullar Xitoydagি yerlarni unda yashaydigan dehqonlari bilan birga bo‘lib olishadi. Ammo dehqonchilikda xo‘jalik yuritish usullari va soliqlar avvaligacha qoladi. Yuan sulolasini Buyuk Yuan sulolasini deb ham ataladi. Xubilayxon mamlakatni zabit etgach, imperiyasining boshqarilishiga moslashishi uchun bir nechta o‘zgarishlarni amalga oshirdi. U mamlakatni o‘n ikki viloyatga ajratdi. Mo‘g‘ullar davrida to‘lovlari oshirildi. Mazkur to‘lovlari faqat dehqonlar va hunarmandlarni emas, hatto savdogarlarni ham honavayron qiladi. Hukumat to‘xtovsiz o‘sib borayotgan harajatlarni qoplash

uchun qo'shimcha qog'oz pullar chiqara boshlaydi. Bu esa pulning qadrsizlanishiga, mahsulot va hunarmandchilik buyumlarining qimmatlashishiga sabab bo'ldi. Davlat amaldorlari orasida turli xalq vakillarini uchratish mumkin edi. Shu asnoda Xitoyda yuan sulolasi boshqaruв tizimi shakllanib bordi. Mo'g'ullarning Xitoyni bosib olishi natijasida, Shimoliy va Markaziy Xitoydagи yerlar deyarli ularning qo'liga o'tdi. Moliyaviy jihatdan boyigan mo'g'ullar o'zining yerlari ko'payib ketishi natijasida yerlarining bir qismini bo'lib berish orqali boyib ketishdi. Yuan sulolasi davrida Dadu eng yirik savdo markazi, dunyo shaharlari ichida eng dabdabali va yuksalayotgan shaharlardan biri edi. Uning markaziy qismida 30 dan ortiq bozorlar, savdo markazi kompleksi va tovar turlari bo'yicha savdo ko'chalari bor edi. Mo'g'ullar Xitoyni bosib olgandan keyin, ko'plab insonlar qurbon bo'ldi va ekin maydonlari vayron bo'ldi. Asosan, Shimoliy va Markaziy Xitoy katta zarar ko'rdi. Masalan, 1213-1214 yillarda bosqinchilik natijasida ko'plab shaharlar zarar ko'rdi. Bosib olingan hududlar aholisi qullarga aylantirildi. XIII asrda Shimoliy Xitoy aholisi keskin kamayib ketdi. Mo'g'ul harbiylari qonunda belgilanmagan tarzda dehqonlardan yerkarni tortib oldilar. Xubilayxon mamlakatni boshqarishda xitoycha usulni qo'llasada, mahalliy amaldorlar xizmatidan voz kechadi. U mamlakatni provensiyalarga bo'lib chiqdi. Iqtisodiy institutlar tashkil qilindi. Soliq sistemasida ham islohotlar amalga oshirildi. Xubilayxon qishloq xo'jaligiga ham juda katta e'tibor qaratadi. Jumladan, Buyuk kanalni kengaytiradi. Ko'plab yo'llar va jamoat omborlarini qudirradi. Ichki boshqaruв masalalarida Xubilayxon donoligi bilan ajralib turardi. U bir qator foydali islohotlarni amalga oshirdi. 1291- yilda u butun imperiyani 12 viloyatga bo'ldi. Xubilayxon imperiyaning soliq to'lash tizimini tubdan qayta tikladi. Imperiyaning o'troq aholisidan, xo'jalik va bosh solig'i natura (don va ipak) hamda pul, ko'chmanchi aholidan esa chorvachilikdan oziqlanadigan soliqlar olingan. Aholining tegishli toifalaridan Xitoyning an'anaviy monopol soliqlarini undirish tartiblashtirildi. Xitoyda mo'g'ullarga xizmat qilgan O'rta Osiyo va Fors ko'rfazi davlatlaridan kelgan musulmon savdogarlarning xo'jaliklariga soliq to'lash amaliyotiga ma'lum muddat chek qo'yildi. Yuan imperiyasining O'rta

Osiyo va boshqa g‘arbiy mamlakatlar bilan savdo aloqalari mustahkamlandi.

Mo‘g‘ullar bosqinidan keyin Xitoyda qullar soni ortib boradi. Yuqorida ko‘rsatilgan sabablar mamlakatda **Dianhu** (yarim qul) va **Kehu** (qaram dehqon) larga bo‘lingan. Dianhu deyarli barcha olingen hosillarni feodallarga bergen.

Kehular hosilning 80% ini feodallarga bergen. Uchinchi toifa esa davlat yerlarida ishlovchi dehqonlar bo‘lib, ularni davlatning xohlagan hududida ishlatish mumkin bo‘lgan. Ular yo‘l qurilishlari, armiyalariga ham jalg qilingan. Mo‘g‘ullar an’naviy tizim baojia tizimini qo‘llaganlar. Bu tizim o‘rtalikda kichik mulkchilikdagi amaldorlarga juda qo‘l keladi. Ular ko‘pgina daromad ham olganlar. Ibodatxonalar qoshida hunarmandlar uychalari faoliyat ko‘rsatgan. Ular mahsulotlarining bir qismlarini soliqlardan tashqari davlatga bergenlar, yana bir qismini soliqqa bergenlar. Xitoy savdogarlari Xitoy hududida ayrim bir mahsulotdan tashqari chetdan olib kelayotgan mahsulotlarini sotish huquqidan mahrum bo‘ldi. Xitoylar tabaqalanish tizimiga ko‘ra 4-o‘rinda turganlar. 1-o‘rinda mo‘g‘ullar; 2-o‘rinda musulmonlar; 3-o‘rinda Shimoliy millatlar turar edi. Xususiy yerlari “Sitian” va Mingtian”, davlat yerlari va umumiyligi yerlari “Guntian, imperator va amaldor, aristokratlarning yerlari esa “fenda” deb ataladi.⁶

Mo‘g‘ullar istilosi G‘arbda — Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda uzoq muddatga cho‘zildi. Mo‘g‘ullar Kavkazortini bosib oldi. 1256-yilda Huloku Eron va Mesopotamiyani, 1258-yil esa Arab xalifaligining poytaxti — Bag‘dodni bo‘ysundirdi. Mo‘g‘ullar Suriyani ishg‘ol qilib, Misrga qarshi hujumga tayyorlana boshladilar. Biroq, 1260-yil Misr sultonini qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchraganlar.

Mo‘g‘ullar istilosi G‘arbda shuning bilan tugadi. Mo‘g‘ullar o‘zlarining Janubiy Sharqiy Osiyoga qilgan yurishlarida Xitoy armiyasi va flotidan foydalangan bo‘lsalarda, muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Mo‘g‘ul-xitoy qo‘shinlari bir necha yurishlar (1277-yil 2 marta va 1282, 1287 yillarda) dan so‘ng Birmani ishg‘ol qildi va poytaxtni qo‘lga olishdi. Biroq tezda (1291-yil) u yerdan haydab chiqarildi. Mo‘g‘ul-xitoy qo‘shinlari va floti bir necha marta Vyetnamga

⁶ M.X.Xubbaliyeva. Xitoy Xalq Respublikasi tarixi. O‘quv qo‘llanma, 2022. 12-b.

hujum qilib (1257, 1258, 1284, 1285, 1287-1288 yillar), uni bo‘ysundira olmadi.

50-yillar oxirida Shimoliy Vyetnamga hujum qilib, poytaxtini egallab olishadi. Qirol va Vyetnam armiyasining ba’zi qismi qayiqlarda qochib ketishadi. Bir haftadan so‘ng, issiq iqlim sababli ular Vyetnamni tashlab qochib ketishadi. Yuan sulolasining Xitoy va mo‘g‘ullardan tarkib topgan qo‘shini ikkinchi marta ham poytaxtni bosib olishadi hamda talon taroj qilishadi. Xubilayxonning Vyetnamga oxirgi hal qiluvchi hujumi 1287- 1288 yillarda katta yo‘qotishlar bilan tugaydi.

Mo‘g‘ullar istilosini davrida tarixiy va madaniy yodgorliklar vaxshiyarcha yakson qilindi. Mo‘g‘ullar istilosini va hukmronligi davrida mag‘lub va mazlum bo‘lgan xalqlarning yagona halokati shu bo‘ldiki, ular dushmanga qarshi barcha ichki nizolarni chetga surib, birgalikda kurashning zarurligini anglab yetmadilar.

XIII asrning 30-50-yillarda mo‘g‘ullar Koreyaga hujum qilishadi va uni qaram davlatga aylantirishadi. 1281-yil Yaponiyani bosib olish maqsadida 1000 kema, 100 ming kishilik qo‘shin jo‘natiladi. Ammo, mazkur flot to‘fonda qolib g‘arq bo‘lgan. Xubilayxon bu davlatdan Yaponiyaga hujum qilishda asos sifatida foydalilaniladi. Yigirma minglik qo‘shin va uch ming katta- kichik kemalardan tashkil topgan flot bilan lekin jiddiy yo‘qotishlar bilan ortga qaytishadi.

Ikkinchi marta hujumga esa 3500 qayiqlar va mo‘g‘ul, koreys, xitoylardan tashkil topgan ulkan qo‘shin bilan yo‘lga tushishdi. Lekin yana mag‘lubiyatga uchrashdi. Bunga sabablardan biri dengizda kuchli dovul bo‘ladi, flot qo‘shinlarining katta qismi halok bo‘ladi. Yaponlar bu dovulni “Xudolar shamoli” deb atashadi.

Xubilayxonning eng uzoq joyga qilgan hujumi 1292-1293-yillardagi Madjapaxit hukumronligi ostidagi Yava oroliga qilgan hujumi hisoblanadi. 1293-yilda mo‘g‘ullar Yava oroliga yetib bordi va muvaffaqiyatli hujum boshlashdi. Ammo keyin qo‘shinlarning aksariyati tuzoqqa tushib qoldi va mo‘g‘ul qo‘shinining bir qismi Xitoya qochib ketdi.

Yuan sulolasi davrida mamlakat shimolida qahramonlik va maishiy mavzulardagi musiqiy drama janri vujudga keldi. Shuningdek, bu davrda epopeya

roman janrining shakllanishi adabiyotda muhim voqeа bo‘ldi. Natijada ijtimoiy-maishiy romanlar yaratila boshlandi. Xitoy xalqining mo‘g‘ullarga qarshi kurashi, mashaqqatli hayoti asarlarda aks ettirila boshlandi.

Bu davrda Van Shi Fu, Guan Xansin, Ma Chjiyuan, Bay Jenfu kabi yozuchi dramaturglarning asarlari xalq orasida sevib o‘qilgan. “Obida Dou E” tragediyasi 700 yil davomida eng yaxshi asar hisoblangan va teatr sahnalarida namoyish qilingan. Shuningdek, ko‘plab tillarga tarjima qilinib, dunyoga mashxur bo‘lgan. Guan Xansin juda qobilyatli, zehnli bo‘lgan. U she’rlar ham yozgan. Uzoq vaqt davomida Guan Xansin Xonbaliq shahrida yashagan. U dramaturgiya bilan birgalikda tibbiyat sohasiga juda qiziqqan. U hukumat kasalxonasida ishlagan. Guan Xansin “syaszuy” deb atalgan mashxur teatrga asos soladi. Bu teatr komediya janri bo‘lib, unda xalq madaniyati, ijtimoiy hayoti aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu teatr folklor na’munalarini ham o‘z ichiga olgan va haqiqat namayon qilingan. Uning asarlarini amaldorlar ham oddiy xalq ham sevib tomosha qilgan. Biroq, Guan Xansin asarlarini amaldorlar uchun emas, balki oddiy xalq uchun yozgan. Chunki, asarlarida xalqning qiyinchiliklarini gavdalantirgan. Yuan sulolasi davrida siyosiy hokimiyat juda achinarli ahvolda edi. Shuningdek, jamiyatda ham sinfiy qarama qarshilik kuchaydi. Xalq orasida noroziliklar va shikoyatlar ayj oldi. Guan Xansin davlat mansabidan voz kechadi. Asarlarida haqiqatni oshkor qiladi va “syaszuy” san’ati yordamida fuqarolarning qiyin vaziyatlarini ifoda etgan. Bu davrda eng yaxshi shoirlar jamoasi mavjud edi. Yuan sulolasi davrida haqiqiy “Oltin asr” nomini olgan Xitoy milliy teatri vujudga kelgan edi. Bu davrda yaratilgan asarlar Xitoy adabiyotida keskin burilish yasadi va klassik adabiyotni siqib chiqarishga qisman bo‘lsada turtki vazifasini bajardi.

Yuan sulolasi davrida iqtisod va madaniyat kabi me’morchilik ham harakatsiz qoladi. Turar joylarning aksariyati oddiy qurilgan edi. Poytaxt qiyofasi ya’ni Pekin Yuan sulolasi davrida tuzildi. Biroq, Min va Sin sulolalari davrigacha o‘zgarishsiz qoldi. Bu davrda qurilgan Beyhay bog‘idagi qurilishlar bizning davrgacha yetib kelgan. Yuan sulolasi davri hukmdorlari asosan buddizm diniga e’tiqod qilganligi sababli ko‘plab buddizm ibodatxonalari qurilgan. Shuningdek,

lamaizm ko‘rinishidagi Oq minora esa Nepal me’morchilik uslubi bo‘yicha qurilgan.

Yuan sulolasasi davrining me’morchiligining o‘ziga xos xususiyati bu-shaharlarning ansambl ko‘rinishida keng qilib qurilganligidir. Qadimgi Xitoyda ishlab chiqilgan shahar rejalarining asosi saqlanib qolgan bo‘lsada, lekin shahar qiyofasi o‘zgara boshladi. Bu ayniqsa Pekin shahrining qurilishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun, bu davrda Pekin Yuan sulolasining savdo markazi va poytaxt shahriga aylantirilgan. Xubilayxon Pekinni eski shahardan sharqqa 3 km.ga ko‘chiradi. Kengaytiradi va atrofini yangi devor bilan o‘raydi. Yangi poytaxtning hududi 60 li ga yoyiladi hamda Qadimgi Xitoy shaharlari kabi to‘g‘ri va keng quriladi. Shahar hududida hashamatli qasrlar qad rostlaydi.⁷

1368-yilda Xitoydagi qo‘zg‘olon natijasida Mo‘g‘ul Yuan imperiyasi quladi. 1380-yilda Moskva knyazligi hududida Oltin O‘rda ta’sirini zaiflashtirgan Kulikovo jangi bo‘lib o‘tdi. 1480-yilda Ugra daryosida turish mo‘g‘ul-tatar qo‘zg‘olonining ko‘tarilishiga olib keldi. O‘rta Osiyodagi feodal tarqoqlik va o‘zaro urushlar davri 16 asr boshlariga kelib, Chag‘atoy ulusining qulashiga olib keldi.

Mo‘g‘ullar imperianing inqirozi boshlanishi bilan XIV asrning o‘rtalaridan Xitoyda xalq ozodlik harakati kuchayadi.

Xenan va Shandun viloyatlarida 1351-yili boshlangan dehqonlar qo‘zg‘aloni tez orada butun mamlakatni qamrab oladi. Qo‘zg‘alonga rohib Chju Yuan Chjan boshchilik qiladi. 1368-yili mo‘g‘ullardan ozod bo‘lgan Xitoyda Chju Yuan Chjan asos solgan Min imperiyasi faoliyati boshlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mo‘g‘ullarning Xitoya istilochilik yurushlari nechta bosqichdan iborat edi?
2. Yuan sulolasining asoschisi kim va u Xitoyda qanday islohotlar olib bordi?

⁷ M.X.Xubbaliyeva. Xitoy Xalq Respublikasi tarixi. O‘quv qo‘llanma, 2022. 24-25 b.

3. Xubilayxon boshqaruvi davrida tashqi siyosatda qanday muvaffaqiyatlarga erishildi?
4. Yuan sulolasasi davri madaniy hayotining o‘ziga xos jihatlarini ayting.
5. Yuan sulolasining inqiroziga qanday omillar ta’sir qildi?

12-mavzu. Min sulolası. Min sulolasining tashqi siyosati. Markaziy Osiyo va Xitoy. Chjen Hening sayohati

12-mavzuda:

- Min sulolasiga asos solinishi**
- Min sulolasining ichki va tashqi siyosati**
- Chjen Hening dengiz sayohati**

Kalit so‘zlar: Chen szu, “Ta’qiqlangan shahar”, Amir Temur, Markaziy Osiyo, Chjen He, Gugun, Pu I

1368-yilda ulug‘ sarkarda Chju Yuan Chjan boshchiligidagi dehqonlardan iborat qo‘zg‘olonchilar armiyasi mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonadi va Min imperiyasi tuziladi. Shunday qilib, yagona Xitoy davlatiga birlashtirildi va Xitoyda yangi sulola tarixi boshlandi. Min sulolası Xitoyni 1368-1644 yillar davomida boshqardi. Bu barqarorlik, tinchlik hamda Xitoyning Sharqiy Osiyodagi o‘rnini paydo qilgan davr edi. Adabiyot, fan va sanat qayta gullab yashnagan. Min imperiyasi hokimiyatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvchi 15 ta gubernatorlar boshqaruvchi viloyatga bo‘lingan. Birinchi poytaxti Nankin Xitoyning iqtisodiy markazidan uzoqda bo‘lgan. Shuning uchun imperator **Chen-Szu** poytaxtni **1421**-yilda Nankindan Pekinga ko‘chiradi. O‘z boshchilida u “Ta’qiqlangan shahar” nomi bilan mashhur imperator saroyini qudirradi. Bu davrda san’at, adabiyot, madaniyat juda rivojlandi.

Imperator Chju Yuan Chjan hokimiyatni Tan sulolası qonun qoidalari asosida boshqardi. U konfutsiychilikka qaytish niyatida bo‘lgan va boshqaruvni boyitishga harakat qildi. Dastlab hokimiyatni o‘zi boshqartirishga harakat qilgan lekin bunga kuchi yetmagandan keyin o‘z atrofiga sodiq bilimli amaldorlarni olishga to‘g‘ri keldi. Boshqaruv apparatiga imtihon asosida odamlar olindi. Imperator buyrug‘iga binoan butun qirollikda uyezd va viloyat maktablari tuzildi. Bu maktabdagi eng bilimli bolalar poytaxtdagi *gozisansyan* maktabiga ko‘chirildi. Bu maktab bitiruvchilari hokimiyat imtihonlariga kirishlari ruxsat etilgan.

Chu Yuanchjan oddiy oiladan kelib chiqishiga qaramay, Xitoy tarixini,

falsafiy an'analarini yaxshi biladigan yetarlicha ma'lumotli shaxs edi. U amallarni yaxshi bilardi. Xitoyning oldingi hukmdorlarini, klassik yodgorliklarni o'rganishga ko'p vaqt sarflagan. Chju Yuan Chjan ayniqsa daosizm ta'limotining asosiy kitobi "Daodisin" asarini mukammal o'rgangan. Min sulolasining o'ziga xos jihatlariga taqlid qilib o'z davlatini boshqargan. Chju Yuan Chjan xitoy tarixi va falsafiy an'analarini yaxshi biladigan bilimli shaxs bo'lgan. Uning o'zini Xitoy jamiyati an'analarini mukammallashtirish maqsadida kiritgan o'ziga xos tasavvurlari bo'lgan. Uning g'oyalari hokimiyatni boshqarishdagi o'ziga xos mukammalliklarga, jamoat erkinligiga, teng tabaqalanishga qaratilgan edi. Boshqaruvni o'z qo'liga olishi bilanoq u o'zining ushbu g'oyalarni amalga oshirishni boshlab yuborgan. U boshqaruvidagi amaldorlarga nisbatan ishonchsz kayfiyatda bo'lgan, ya'ni amaldorlarni poraxo'r deb hisoblagan. Min sulolasining davrida yana gullab yashnagan sanoatlardan biri chinni ishlab chiqarish edi. Chinni ishlab chiqarish bo'yicha savdo markazi Szindechjen shahri bo'lgan. Aholisi milliondan oshgan. U yerda chinnidan kundalik ehtiyoj mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Shunday qilib, bu davrda sanoat rivojlana boshlagan.

Nankin va Pekin shaharlari esa savdo-sotiqlari kuchli rivojlangan shaharlar hisoblangan. Ishlab chiqarish korxonalari keyinchalik alohida bozorlarga, ko'chalarga joylasha boshlagan. Masalan, Nankinda satin, parcha, matolari ko'chasi, bo'yoq ko'chasi, mischilar ko'chasi, konchilar ko'chasi va temirchilar ko'chasi bo'lgan. Pekinda esa guruch bozori, ko'mir bozori kabi bozorlar bo'lgan.

Min sulolasining oxirgi yillarida Nankin savdo shahriga aylandi. Nankin va Pekindan tashqari Xanchjou, Fuchjou, Guanchjou, Guylin, Kayfin va boshqa 30 dan ortiq savdo shaharlari bo'lgan. Ularning ko'pchiligi Xitoyning shimoliy sharqida joylashgan.

1368-yildan keyin Cju Yuan Chjan mo'g'ullar bilan munosabatlarni tiklaydi va do'stona aloqalar o'rnatishga harakat qiladi. Hukmronligining ilk yillaridayoq Shimoliy Xitoyni mo'g'ullardan tozalaydi va uning chegara qismlarini qayta tiklaydi. Shuningdek, shimoliy chegaralarini yanada mustahkamlash maqsadida Qoraqurumga o'z elchisini yuboradi. Natijada mo'g'ullar bilan yangi kelishuvlar

imzolanadi. Biroq, Ichki Mo‘g‘ulistondagi ayrim mo‘g‘ul qabilalari unga qarshi bosh ko‘taradi. Shunda Chju Yuan Chjan ba’zi mo‘g‘ul qabilalarini haydar chiqaradi.

G‘arbiy va shimoliy cheagaralarda shaharlar qurish rivojlantiriladi va yangi qal’alar barpo qilinadi. Shundan so‘ng, bir necha yilga mo‘g‘ullar Min imperiyasiga yaqin kelolmaganlar.

Shuningdek, Min sulolasi va Amir Temur o‘rtasida savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. Xitoy olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, Amir Temur Min xonligining poytaxti Pekin (Xonbaliq) shahriga 8 marta elchilar yuborib, Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalarni rivojlantirgan. Chunonchi, 1387-yilda va 1389-yillari kuzda Mavlono Xofiziy, 1388-yilda Toj ad-Din (Tamuding), 1391-yilda Shohalil (Shahali), 1392-yilda Nig’mat ad -Din (Nimaopuding), 1394 va 1395 yillarda Darvish (Dielibeyshi), 1396-yilda Alomat ad-Din (Alamadan)⁸ boshchiligida Pekinga Amir Temur nomidan elchilar kelgan. Mazkur elchilar orqali sohibqiron Xitoy xoniga ot, tuya va boshqa narsalar yuborgan. Xitoy xoni esa bular evaziga kumush, pul, ipak matolar qaytargan. 1396-yilda Amir Temur Alomat ad-Din orqali Xitoy xoniga maktub yo‘llab, uning yuborgan narsalaridan mamnun bo‘lganligini ta’kidlagan.

Shuningdek, Min sulolasi ham Samarqandga bir necha marta elchilar va savdogarlar yuborgan. Masalan, 1395-yilda Samarqandga Pekindan Bo An boshchiligida 1500 kishidan iborat bo‘lgan elchi va savdogarlar guruhi, 1397-yilda Chen Deven boshchiligidagi xitoy elchilari va savdogarlari kelgan.⁹

1500-1599 yillar oralig‘ida Xitoyda Min sulolasi va Shayboniyalar sulolasi har bir hukmdorlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar bo‘lgan. Xitoyning Markaziy Osiyo bilan asosiy savdo aloqasi bu otlar hisoblangan. Qadim zamonlardan boshlab bu yerda otlarning savdo almashuvini, masalan imperatorlarning aynan farg‘ona otlariga qiziqishlari juda katta bo‘lgan. Xitoyliklar farg‘ona otlarini samoviy otlar deb nomlashgan. Min sulolasining shimoliy mo‘g‘ullar va Janubiy Yurxen

⁸ A. Xo‘jayev. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007. 199- b.

⁹ O‘sha manba. 200-b.

qabilalari bilan harbiy to‘qnashuvlari paytida juda ko‘p miqdorda otlarga ehtiyojlari bor edi. Shu munosabat bilan, hukmronlik qilayotgan sulola (Min sulolasi) Xitoya otlarni olib kirishni qo‘llab-quvvatlab turgan. Bunga misol qilib, Xitoy Min sulolasi imperatori Jia Jing¹⁰(嘉靖, Jia Jing, 1522-1566-yy.) Guang Chjou (广州, Guang Zhou), Lyan Chjou (连州, Lian Zhou), Lan Chjou (兰, Lan Zhou), Ning Sia (宁夏, Ning Xia) va boshqa shaharlarda bir qator “ot” bozorlari tashkil qilingan va shu davrda ot savdosi ancha rivojlangan.

Chengzu o‘z hukmronligi davrida dengiz savdosiga juda katta e’tibor qaratadi. Bu vazifa amaliy faoliyati, ziyrakligi, bilimi va qobilayati bilan Chengzuning ishonchini qozongan Chjenhega topshiriladi. Chjenhe 7 marotaba dengiz sayohatiga chiqadi. Uning dengiz safarlari Min sulolasi davlat byudjetiga judda katta daromad olib kelgan.

Birinchi safari 1405 -1409 yillarni o‘z ichiga oladi. 63 ta kema va 27 mingta odam bilan yo‘lga chiqadi. Unga Van Szin Xun hamrohlik qiladi. Suchjoudan Lyuszya he daryosi orqali yo‘lga chiqishadi. Kemalarda judda katta miqdorda qog‘oz pullar, oltin, kumush, ipak va chinni buyumlari, temir va bronzadan tayyorlangan mahsulotlar bor edi. Kemalarning eng kattasi uzunlik jihatidan 145 m va eni bo‘yicha 59,5 m bo‘lgan. Bu kemalar o‘sha paytda “xazina uchun kemalar” deb ataldi. Birinchi safarda Chjenhe boshchiligidagi sayohatchilar Indoneziya orollarigacha yetib bordi.

Ikkinci safari 1407 -1409 yillarda amalga oshiriladi. Ushbu safarga 249 ta kema bilan yo‘lga chiqadi. Mazkur safar kemalar soni jihatidan Chjenhening eng katta safari hisoblanadi. Birinchi safarda Indoneziya orollariga borgan, ikkinchi safarda u Hindiston yarim orolining janubiy sohillariga yetib boradi.

Chjenhening uchinchi safari 1409-1411 yillarda davom etgan. U 48 ta kema bilan yo‘lga chiqadi. Bu safar Hindiston yarim orolining g‘arbiy sohillaridagi portlarga yetib boradi.

¹⁰Hou Cong (厚熜) - Xitoya Min sulolasi imperatorning asl ismi bo‘lgan. U taxtga kelgandan so‘ng unga Shi Zong (世宗, Shi Zong, ya’ni avlodlarning o‘tmishi) deb nom berishgan. Jia Jing (嘉靖, Jia Jing)- 1522-1567 yy. Hou Cong (厚熜) hukmronlik qilgan davri shunday nomlashgan. Bu imperatorlarning shiori hisoblanga. Biz xitoy manbalari o‘rganish davomida imperatorlarning asl ismi emas, balki ularning hukmronlik qilgan yillarining nomi yoki imperatorlarning shiori bilan atalgan.

To‘rtinchi safar 1413-1415 yillarda amalga oshiriladi. Bu sayohatda Fors ko‘rfazidagi yirik xalqaro savdo markazi Xo‘rmuz portigacha yetib bordi.

Beshinchi dengiz safari 1416 -1419 yillar amalga oshirildi. Bu safarda Chjenhe Afrika qit’asining sharqiy dengiz sohillariga yetib boradi.

1420-1422 yillarda Chjenhening oltinchi safari amalga oshiriladi. Bu safarda Afrikaning sharqiy dengiz sohillarida joylashgan bir nechta mamlakatlarni aylanib chiqadi.

Chjenhening so‘nggi safari 1430-yilda amalga oshiriladi va tarixda “Makka safari” deb ataladi. Chunki, hamrohlari Makka shahriga haj ziyoratini amalga oshirish uchun boradi. Bu safarda Chjenhe 61 ta kema bilan yo‘lga chiqadi. So‘nggi safarida Nankin porti orqali yo‘lga chiqiladi va Chjenhega 27 mingdan ziyod kishi hamrohlik qiladi. Chjenhe safari davomida ko‘rgan kechirganlarini yozib qoldiradi.

Chjenhening dengiz safari Min sulolasi davridagi eng muhim voqeа – hodisalardan biri sanaladi. Shuningdek, bu davr Xitoy iqtisodiyoti va boshqa bir qancha sohalarning rivojlanishiga xizmat qildi. Jumladan:

Birinchidan, janubiy dengiz ortidan bozorlarning ochilishi, savdo-sotiqning rivojlanishi, hunarmandchilikning gullab yashnashi va tashqi savdoning Xitoyda o‘sishiga olib keldi;

Ikkinchidan, Chenhening dengiz sayohatidan bir necha yillar avval mo‘g‘ul xalqining ko‘pchilik qismi janubiy-sharqiy dengiz rayonlariga ko‘chirildi. Chjenhening sayohatidan keyin bu yanada kuchaydi va ko‘plab aholi dengiz bo‘yi hududlariga ko‘chirildi. Bu esa o‘z navbatida dengiz bo‘yi hududlarining rivojlanishiga olib keldi;

Uchinchidan, Chjenhening dengiz sayohati okenshunoslik, kemasozlik sohalaridagi bilimlarning yanada shakllanishiga turtki bo‘ldi. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi munosabatlar rivojlandi.

Xitoy poytaxti Pekin markazida o‘rta asr yodgorliklaridan biri Gugun - imperator saroyi shahar husniga ko‘rk bag‘ishlaydi. Tyananmen maydonining shimolida joylashgan Saroy to‘rt tomonidan bahaybat devorlar bilan o‘rab olingan.

Dushmandan himoya qilish maqsadida saroyining atrofiga maxsus ariq qazilgan. Qurilishi 1420-yilda boshlangan mazkur saroyda salkam 500 yil maboynda Xitoyning Min va Sin sulolalarining 24 nafar imperatori yashab, mamlakat ustidan hukmronlik qilgan. Bugungi kunda YuNeSKOning Jahon Madaniy Merosi ro‘yxatiga kiritilgan - qadimda “Ta’qiqlangan shahar” deb atalgan Gugun saroyi Min sulolasining ikkinchi imperatori Chju Di tomonidan hukmronligining to‘rtinchi yilida qurila boshlanib, 14 yildan keyin foydalanishga topshirilgan. Saroyda minglab xonalar mavjud bo‘lib, ma'lumotlarga ko‘ra 9 ming 999 yarimta xona bor ekan. Chunki Xitoy afsonalariga ko‘ra, Osmon hukmdori 10 mingta xonaga ega bo‘lishishi shart ekan. O‘zini “Osmon o‘g‘li” deb atagan imperialalar esa 10 mingta xonaga ega bo‘lgan inshoat qurishga haqqi yo‘q ekan. Shu sababli ham bitta xona bitkazilmay chalaligicha qolib ketgan. Saroy qurilishiga sarflangan mablag‘lar haqida aniq ma'lumotlar saqlab qolinmagan, biroq qurilish ishiga yuz minglab ustalar, millionlab quruvchilar jalb qilingani borasidagi yozma manbalar bor. Qurilish ashyolari mamlakatning barcha burchaklaridan olib kelingan. Hatto poytaxtdan ming kilometr uzoqlikda joylashgan Guandun va Yunnan viloyatlaridan ham qurilish ashyolari olib kelingan.

Qadimiy xitoyliklar xalq urf-odatlari va madaniyatining asosini tashkil qilgan “usin” nazariyasi (ya’ni beshta ashyoni: metal, yog‘och, suv, olov va tuproq) ni juda ham hurmat qilishgan. Bu nazariyaga ko‘ra, janub hayotga kuch bag‘ishlovchi olov hukmronligiga taalluqli ekan. Shu sababli shaharning janubiy qismida hukmronlik ramzi sifatida ma’muriy qala barpo etilgan. Suv esa shimolga taalluqli bo‘lib, shaharning shimoliy qismida hukmdorlar oilasining istiqomat qilishi uchun qal’a qurilgan. Tuproq sariq rangda bo‘lgani sabab bu rang mamlakat ramzi sifatida qabul qilingan bo‘lib, Gugun shahrining barcha tomlari sariq rangga bo‘yalgan. Ustunlarning hammasi olov rangi- qizil bo‘lib, sariq va qizil ranglar umumiylar farovonlikni aks ettirar ekan. Muhtasham “Ta’qiqlangan shahar” ikki qismdan-tashqi bino va ichki qarorgohlardan iborat. Saroy darvozalari tashqarisida Tayxedyan, Chjunxedyan, Baoxedyan kabi qasrlar bo‘lib, ularda asosan muhim davlat va saroy tadbirlari o‘tkazilgan. Saroyning shimoliy qismida

Tsyantsingun, Tszyaotaydyan hamda Kunningun qasrlari bo‘lib, bu yerda Min sulolası davrida oilaviy tadbirlar o‘tkazilardi. Eng hashamatlisi Tayxedyan qasri bo‘lib, bu kabi hashamatli bino mamlakatda bo‘lmagan. To‘g‘ri bu qasrdan kamdan kam hollarda, ya’ni imperator taxtga o‘tirganida, uning tug‘ilgan kunida, yozgi va qishki teng kunlikda, malika va shahzodalarining nikoh to‘ylaridagina foydalanilgan. Tarixda ilk bor imperiya ag‘darilishi ham ayni Tayxedyan qasrida e’lon qilingan. Eslatib o‘tamiz, Xitoyning so‘nggi imperatori Pu I 1912-yilda taxtdan voz kechgan bo‘lishiga qaramay, “Ta’qiqlangan shahar”ni 1925-yilda tark etgan.

1644-yilda manjurlar Pekinda hokimiyatni qo‘lga oldilar. Xitoyning manjurlar tomonidan bosib olinishi uzoq davom etib, har qanday xalq qo‘zg‘olonlari qattiqqo‘llik bilan bostirildi. Shuning bilan Xitoyda 300 yilga yaqin hukmronlik qilgan va butun Xitoy yerlarini birlashtirgan yangi sulola Sin sulolasining rasman hukmronligi boshlandi.

Nazorat uchun savollar:

1. Min sulolasiga kim asos soldi?
2. Min sulolası davrining o‘ziga xos davlat boshqaruvi o‘ziga xos jihatlari haqida gapiring
3. Min sulolası va Amir Temur o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy ahamiyati haqida gapiring
4. Min sulolasining istilochilik yurishlari va tashqi siyosiy faoliyati qanday bo‘lgan?
5. Chjen Hening dengiz sayohati nechta bosqichdan iborat?
6. Chjen Hening dengiz sayohati natijalari va ahamiyati nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Xo‘jayev. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
2. Каримова Н.Э., Ким В.С., Николаева К.С., Имамназаров Қ.У.,
Норалиев У.С. Страноведение. Ташкент: ТашГИВ, 2016.
3. Каримова Н., Азимов К., Пьянова Е. Особенности развития стран
Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент: ТашГИВ, 2014.
4. M.X.Xubbaliyeva. Xitoy Xalq Respublikasi tarixi. O‘quv qo‘llanma, 2022.
5. Очерки История Китая (под ред. Шан Юэ). М., 1959.
6. История Китая. Под. Ред. А.В. Меликсетова. М., 1998.
7. В.В.Адамчиқ, М.В. Адамчик, А.Н.Бадан и др. История Китая. Минск.
Харвест.2004 .
8. Непомнин О.Е. История китая. М, 2004.

Qo‘shimcha adbiyotlar.

9. Ломанов А.В. Христианство и Китайская культура. М.,2002.
10. Вигасин А., Данномаев М. История Древнего Востока. Учебник. М.,
2001.
11. Васильев Н. История Востока. 1-2 том. М., 2004.
12. В.М.Рибаков. Танская бюрократия. Часть I Генезис и структура. 2009.
13. Титаренко М.Л. Китай: цивилизация и реформы. М., 1999.
14. Китайская цивилизация как она есть. – М.: ACT, 2005.